

TARBIYA 4

BAXT VA MUVAFFAQIYAT SIRLARI

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
4-sinf o'quvchilari uchun darslik

O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi
tomonidan tavsiya etilgan



TOSHKENT
«O'ZBEKISTON»
2020

UO'K 17(075.3)
KBK 87.7ya72
T 23

Mualliflar:

Shermuxe'dova Saodat, Akkulova Saodat, Ismatova Nargiza,
Ro'ziyeva Dilnoz, Rahimjonov Durbek, Sattorov Shuhrat, Zamonov Zokir,
Islomov Zohidjon, Maxmudov Obiddin, Zokirova Sevara, Madaliyeva Sevara,
Mo'minova Laylo, Xolmuxamedova Nilufar

Mas'ul muharrirlar:

Z. Islomov – filologiya fanlari doktori, professor;
D. Kenjayev – tarix fanlari nomzodi.

Taqrizchilar:

- A. Tagayev** – Xalq ta'limi vazirligi Ma'naviy-axloqiy tarbiya boshqarmasi boshlig'i, tarix fanlari nomzodi;
L. Gaynutdinova – Respublika tashxis markazi direktori;
K. Abrorxonova – Nizomiy nomidagi TDPU «Boshlang'ich ta'lim pedagogikasi» kafedrasini mudiri, pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD;
Z. Jumanova – RTM «Boshlang'ich ta'lim» bo'limi boshlig'i, IMK a'zosi;
Z. Jabborova – RTM metodisti;
D. Babamuratova – Toshkent shahar Uchtepa tumani 287-umumiy o'rta ta'lim maktabining boshlang'ich sinf o'qituvchisi.

*O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Din ishlari
bo'yicha qo'mita, Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi,
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasining tegishli xulosalari asosida nashrga tayyorlangan.*

Shartli belgilar



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



Ijodiy faoliyat



Oila davrasida



Bilasizmi?



Mustaqil faoliyat



Hikmat

Respublika maqsadli kitob jamg'armasi mablag'lari hisobidan chop etildi.


ISBN 978-9943-6481-6-6

© S. Shermuxamedova va boshq., 2020
© «O'zbekiston» NMIU, 2020



3-SINFDA O'RGANGANLARIMIZNI TAKRORLAYMIZ

- ✓ KUN TARTIBIGA RIOYA QILISH
- ✓ TARTIBLI BO'LISH
- ✓ KATTALARNI HURMAT QILISH, KICHIKLARGA
IZZAT KO'RSATISH
- ✓ DARSLARGA KECH QOLMASLIK
- ✓ SALOMATLIKNI ASRASH
- ✓ TEJAMKOR BO'LISH
- ✓ ROSTGO'Y BO'LISH
- ✓ BERILGAN TOPSHIRIQLARGA MAS'ULIYAT
BILAN YONDASHISH
- ✓ BILIMINI OSHIRIB BORISH
- ✓ BAG'RIKENG BO'LISH
- ✓ JAMOAT JOYLARIDA TARTIBGA RIOYA QILISH





1-MAVZU: VATAN MADHI



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. O'z oilangiz haqida gapirib bering.
2. Nima uchun kattalar «O'z oilasini sevgan inson mahallasini sevadi, mahallasini sevgan inson o'z yurtini sevadi» deyishadi?
3. Qanday insonni o'z yurtini sevadigan inson deyish mumkin?
4. O'z yurtiga bo'lgan sevgini nimalarda namoyon qilish mumkin?
5. O'z yurti uchun fidoyi bo'lgan insonlardan kimlarni bilasiz?

Ulug'bekning ota-onasi chet elga xizmat safariga ketishdi. Ulug'bek 4-sinfda o'qishni avstraliyalik tengdoshlari bilan boshladi. Yangi do'stlar orttirdi, shaharning xushmanzara joylari unga juda yoqdi. Lekin

u har doim o'zida nima-dir yetishmayotganligini his etar edi. U, ko'pincha, tushida o'zi tug'ilgan hovlisi, yaqinlari, do'stlarini ko'rar, ularni sog'inari edi. Dadasi Ulug'bekning kayfiyatini tushunib: «Vatan bizsiz kunini ko'raverishi mumkin. Vatan yuzlab va minglab odamlarsiz ham yashaydi. Ammo biz





yer yuzining qayerida bo'lishimizdan qat'i nazar, tug'ilib o'sgan yurtimizni sog'inamiz», – dedi o'rtanib.

1-ijodiy faoliyat



1. Hikoyadan qanday xulosa qildingiz?
2. Hikoya yuzasidan qilgan xulosangizni quyida berilgan hikmat bilan bog'lab ko'ring.
3. Matn asosida tushirib qoldirilgan so'zlarni toping va o'rniga qo'ying:
... yuzlab va minglab odamlarsiz ham... . Ammo biz yer yuzining qayerida bo'lishimizdan qat'i nazar, tug'ilib o'sgan yurtimizni....
4. «Men uyimni sog'inaman» mavzusida kichik hikoya tuzing.

Hikmat



**Bulbul chamanni sevar,
Odam – Vatanni.**

2-ijodiy faoliyat



Jadvaldagi chalkashtirib berilgan maqollarni tartibga solib o'qing.

Vatani borning	o'z qadrini bilmas
Vatan qadrini bilmagan	baxti bor
Ona yurtim –	o'lan to'shagim
O'z uyim –	oltin beshigim



3-ijodiy faoliyat

1. Siz Vatanimizni qanday madh etasiz?
2. «Vatanimiz dovrug'ini dunyoga taratamiz» degan gapning mag'zini chaqing.
3. «O'z yurtini jon dilidan sevmagan odam hayotning go'zalliklarini ko'ra olmaydi» degan fikrni qanday tushunasiz?



Oila davrasida

1. Yaxshi farzandning qanday xislatlari oilasiga rahmat olib keladi?
2. Odobli farzand bo'lish uchun nima qilish kerak?
3. Vatan haqida qanday she'rlar bilasiz?
4. «Ona Vatanda azizdir inson» deganda nimani tushunasiz?
5. Qo'shimcha o'qish uchun berilgan matnni oila a'zolaringiz bilan o'qing.
6. Sabr, qanoat, imkoniyat haqida maqollar, ibratli fikrlar topib, daftaringizga yozing.

Qo'shimcha o'qish uchun

Qadim zamonda bir dehqon bo'lgan ekan. Uning ishlab topgani kun ko'rishiga yetar ekan. Dehqon oilasi bilan tinch-totuv kun kechirar ekan. Kunlarning birida dehqon yer chopayotib makkajo'xori donidek keladigan yaltiroq tosh topib olibdi. Zargarga olib borsa, bu qimmatbaho tosh olmos ekanligini aytibdi. Toshni zargarga katta pulga sotibdi. Pullarni ko'rgan dehqon shosha-pisha: «Bunday toshni yana qayerdan



topsa bo'ladi?» – deb so'rabdi. «Tog' konlaridan-da», deb javob beribdi zargar. Dehqon tog'ga chiqib ketibdi. Bir umr dehqonchilik qilgan dehqon kon qidirishga uquvi bo'lmaganligi sababli sarson-sargardon bo'lib, ortiga qaytibdi.



U yana o'zining avvalgi dehqonchiligini qila boshlabdi. Yerga yaxshilab ishlov beribdi. Peshona terisini artib, birpas dam olish uchun o'tiribdi. Shu payt ko'zi yarq etgan toshga tushibdi. Yaxshilab qarasa, avvalgi topganidan ham katta olmos ekan. Dehqonning hovlisida bunday olmoslar ko'p ekan.

Demak, asl rohat o'z kasbiga, ona Vataniga sadoqat bilan mehnat qilishda ekan.

4-ijodiy faoliyat



1. Qo'shimcha o'qish uchun berilgan matnni quyidagi hikmatlar bilan bog'lang:
 - a) Imkoniyat doimo o'z yurtida, kindik qoning to'kilgan makonda bo'ladi;
 - b) Shukur qilsak, halol mehnat qilsak, har birimiz, aslida, olmos to'la zamin ustida yashayotganimizni anglab yetamiz. Qanoatli bo'lish – eng katta boylik.
2. «Har bir inson qo'lidan keladigan ishni qilishi kerak» degan gapni yuqoridagi ertak bilan bog'lashga harakat qiling.



2-MAVZU: O'ZBEKISTON – KO'P MILLATLI DAVLAT



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. «Ko'p millatli davlat» iborasini qanday tushunasiz?
2. Siz nima deb o'ylaysiz, O'zbekistonda yashayotgan odamlarni nima birlashtirib turadi?
3. Bir joyda yashaydigan insonlarga totuv, birdam, ahil bo'lish nima uchun kerak?

Kech bo'lganda ota-onamning shoshilib chiqib ketishlaridan bezovta bo'ldim. Ular ertalabgacha qaytishmadi... Maktabdan kelib onajonimni qattiq sog'inganim bois, ularga qo'ng'iroq qildim.

Dadajonimning pichirlab gapirishlaridan hech narsani tushunmadim.

Opamning aytishlaricha, onajonimning ustozlari qattiq betob bo'lib qolibdilar. Butun umrini oliy ta'lim muassasasida talabalarga dars berish, ilmiy faoliyat bilan shug'ullanishga bag'ishlagan bu rus ayolining farzandlari chet davlatga ish bilan ketgan ekan.

Ota-onam ularni so'nggi yo'lga kuzatishga bosh bo'lishibdi. Kech-qurun juda xafa bo'lib qaytgan onajonimdan: «Nega xafa bo'lasiz? Ular bizning qarindoshimiz emas-ku, ularning odatlari ham, millati ham boshqa-ku?» –





deb so'radim. Bir zum indamay turgan dadajonim: «Boram, biz insoniylik burchimizni bajardik», – deb javob berdilar.

1-ijodiy faoliyat



1. Sizning mahallangizda qaysi millat vakillari istiqomat qilishadi?
2. «Boram, biz insoniylik burchimizni bajardik» degan gapni siz qanday tushundingiz?

Biz yangi uyga ko'chib o'tdik. Yuklarimiz orilgan mashina uyning yo'lagida to'xtadi. Sport maydonchasida to'p o'ynayotgan bolalar biz tomoniga chopib kelib, yordam bera boshlashdi.

Yangi qo'shnilar orasida koreys millatiga mansub, o'zbek tilida juda chiroyli gapirayotgan bola mening e'tiborimni tortdi.

«O'zbek tilini qayerdan bilasan?» – qiziqib so'radim boladan. «Dadam har doim: «Biz O'zbekistonda yashaymiz, bu yurtning urf-odatlarini hurmat qilishimiz kerak», – deb uqtiradilar», – dedi suhbatdoshim. Men u bilan qalin do'st bo'lib qoldim.



2-ijodiy faoliyat



Siz boshqa millatlarning milliy taomlari yoki urf-odatlarini haqida bilasizmi?



* * *



Islombekning onasi oshni kosaga solgach, ustiga ozroq bo'g'irsoq qo'yib: «O'g'lim, buni qo'shnimiz Vera xolaga berib kel. Savob bo'ladi», – dedi.

Islombek shosha-pisha Vera xolanikiga chopdi. U tez-tez Vera xolanikiga osh olib chiqadi. Vera xola esa doim idishga olmalı shirinlik solib beradi. Bu pishiriqlar Islombekning jon-u dili. «Rahmat, bolam, Hayit bayraming muborak bo'lsin», – dedi Vera xola.

Rus xalqining qishni kuzatish bayramida Vera xola ham qo'shnilarini mazali quymoqlar bilan mehmon qiladi. Bayramlar, an'analar tufayli mahallada yashaydigan oilalar o'rtasida har doim mehr-oqibat va hamjihatlik bor.



3-ijodiy faoliyat

1. Barcha millatlar bir-birlarini hurmat qilishlari nimaga xizmat qiladi?
2. Ushbu matnni o'qing va quyidagi topshiriqni bajaring: «Bir odam doimo qo'shnisi haqida turli yomon gaplarni gapirar, ko'chasiga axlat tashlab ketar edi. Buni ko'rgan mahalla raisi unga qattiq tanbeh berib, faqat o'zini hurmat qilmaydigan odamlargina bunday ishlarni qilishlari mumkinligini tushuntirdi». Bu voqea bilan Vera xola haqidagi hikoyani solishtiring.



Hikmat

O'zingga ravo ko'rgan narsani boshqalarga ham ravo ko'rgin.



Oila davrasida



1. «Insoniylik burchi» iborasini berilgan matnlar asosida tushuntiring.
2. Tushirib qoldirilgan soʻzlarni qoʻying.
«Bolam, biz ... burchimizni ...».
«Dadam har doim: «Biz ... yashaymiz, bu ... urf-odatlarini ... qilishimiz kerak», – deb uqtiradilar», – dedi suhbatdoshim.
3. Totuvlik, hamjihatlik va oʻzaro doʻstlik haqida rasm chizing.



Bilasizmi?



Har yili 16-noyabrda Oʻzbekistonda «Xalqaro bagʻrikenglik kuni» nishonlanadi. Mamlakatimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari yashaydi. Ular qozoq, qirgʻiz, qoraqalpoq, rus, tojik, turkman, tatar, ukrain singari turli millat vakillari hisoblanishadi. Barchamiz «Oʻzbekiston – umumiy uyimiz» shiori ostida bitta mamlakatda ahil, inoq, totuv boʻlib yashamoqdamiz.



3-MAVZU: MARD VA JASUR INSON – VATANNING TAYANCHI



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. «Mard va jasur inson» deganda qanday insonlarni tushunasiz?
2. Mardlik nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Siz uchun har kuni jasorat ko'rsatadigan insonni bilasizmi?


– Bobojon, jasur va mard bo'lish uchun urushga borish kerakmi?

– Bolajonim, tinchlik vaqtida ham jasurlik ko'rsatish mumkin. Masalan, yordamga muhtojlarga yordam ber; biror-bir ishni boshladingmi, oxiriga yetkaz; va'da berdingmi, bajar; o'qishing va xulq-atvoring bilan o'rtoqlaring va ukalaringga o'rnak bo'l;

har qanday sharoitda ham rost so'zla, birovni aldama; o'zingga yuklatilgan vazifaga mas'uliyat bilan yondash, uni sidqidildan ado et.

Birpas o'ylab turib, Boburning bobosi suhbatni davom ettirdi:

– Sen o'g'il bolasan! Katta bo'lsang, Vatan himoyachisi bo'lasan. Buning uchun sen hozirdan salomatligingga e'tibor berishing, tanangni chiniqtirishing lozim.





1-ijodiy faoliyat



1. «Farovonlik» deganda nimani tasavvur qilasiz? Fikringizni yuqorida berilgan rasmlar asosida izohlashga harakat qiling.
2. Quyidagi jadvalni daftaringizga yozing va savollarga javob bering:

Vatan ravnaqi kimlarga bog'liq?	Vatan rivojiga hissa qo'shish uchun siz qanday sifatlarga ega bo'lishingiz kerak?	Yurtimizda tinchlikni ta'minlovchi idora va tashkilotlarning nomini bilasizmi?

Hikmat



**Mardning ishi – mehnatda,
Nomardning kuchi – og'zida.**



Ikki qadrdon do'st va sinfdoshlar har kungidek sayrga chiqdilar. Ikki o'rtoq yo'l-yo'lakay bir-biri bilan hazillashib, quvlashib kelar edi. Ular sayr qilib yurgan hududdan oqib o'tuvchi suv kanali yoniga kelganlarida, bolalardan birining sho'xligi tutib, ko'priq yonidan o'tgan suv quvuridan yugurib o'tmoqchi bo'ladi. U quvur ustida biroz yurdi-da, oyog'i sirpanib, suvga tushib ketdi. Juda tez sodir bo'lgan voqeadan do'sti o'zini yo'qotib qo'ymadi. U o'rtog'iga yordam berishga shoshildi. Bir necha yildan beri suzish bilan shug'ullanib kelayotgan bola murabbiylarining bergan tavsiyalarini eslab, zudlik bilan ustki kiyim va poyabzallarini yechib, o'zini suvga otdi.

Jismoniy tarbiya mashg'ulotlarida chiniqqan bola do'stini qirg'oq tomonga itarib, qutqarib qoldi.



2-ijodiy faoliyat

1. Bolaning suvga tushib ketishiga nima sabab bo'ldi?
2. «Insonparvarlik, mardlik tuyg'ulari» deganda nimani tushunasiz?



Oila davrasida

1. «Yurt tinchligi – el boyligi» iborasini qanday tushunasiz?
2. Vatan ravnaqi uchun siz qanday hissa qo'sha olasiz?
3. Atrofingizdagi insonlardan kimlarni qahramon sifatida ko'rsata olasiz?
4. Yurtimizda yashagan mard va jasur bobolardan kimlarni bilasiz? Ularning nomlarini va amalga oshirgan ishlarini gapirib bering.



4-MAVZU: BOBOLARIMIZNING BEBAHO MEROSI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. Bilimli bo'lishning zarurati nimada?
2. Koinot nimaligini bilasizmi? Koinotni o'rganish uchun qanday bilimlarga ega bo'lish kerak?
3. Nima uchun «Matematika – fanlarning shohi» deyiladi?
4. Tungi osmonni ko'rganingizda yulduzlarni yaqindan tomosha qilishni orzu qilganmisiz?

KOINOTNI ZABT ETGAN BOBOM

Bundan 1200 yillar avval yashagan bobomiz Ahmad al-Farg'oniylardan turib yulduzlarni o'rgangan. U bolaligidan kitoblarni sevib o'qir, bilmaganlarini ustozidan so'rab o'rganar edi.

Bag'dod shahrida ta'lim olgan Ahmad al-Farg'oniylardan ko'p vaqtini kutubxonada o'tkazgan. U yunon va hind olimlarining kitoblarini o'qigan, ularni arab tiliga tarjima qilgan va o'quvchilar uchun sodda tilda sharhlagan. Ahmad al-Farg'oniylarning «Astronomiya asoslari haqida kitob» asari uzoq vaqt davomida jahondagi ko'plab universitetlarda astronomiyadan asosiy darslik sifatida o'qitilgan.






O'zbekistonda Ahmad al-Farg'oniylar nomidagi bog'lar, ko'chalar mavjud.

861-yilda Misrda Al-Farg'oniylar bobomiz Nil daryosi suvi sathini o'lchaydigan inshoot barpo etgan.

Undagi matematik hisob-kitoblar bo'yicha ishlaydigan suv tarozisi qaysi dehqon qancha yer solig'i to'lashini aniq belgilab bergan.

Uni «adolat tarozisi» ham deyishgan. Tarixiy suv tarozisi poyida Ahmad al-Farg'oniylarning ulug'vor va ko'rkam haykali qad rostlagan.





1-ijodiy faoliyat



1. Ahmad al-Farg'oniydek buyuk olim bo'lish uchun uning qanday xislatlari sizda ham bo'lishini xohlar edingiz?
2. Ahmad al-Farg'oniy yozgan kitoblar dunyo rivojiga qanday hissa qo'shgan?
3. Misrliklar Ahmad al-Farg'oniyni nima sababdan hurmat qilishadi?

Abu Abdulloh Muhammad ismli bola uzoq yurtlarga ilm o'rganish uchun chiqadigan bo'libdi. Uning bu ishini onasi qo'llab-quvvatlab, bilim yo'lida har qanday to'siqlarni yengib o'tishi uchun sabr va matonat kerakligini aytib, oq fотиha beribdi. Bola uzoq o'lkalarga borib, u yerlardagi mavjud bilimlarni o'rganibdi va odamlarni o'z iqtidori bilan lol qoldiribdi.

Odamlar bolakaydan ismini so'rashsa, «Men Muhammad, Buxorodanman», deb javob berar ekan. Keyinchalik uni Muhammad Buxoriy deb chaqiradigan bo'lishdi.

Buxoriy Payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ning hayot va faoliyatlari, qilgan ishlari,





nasihatlarini o'rgandi. U to'plagan ma'lumotlarini qog'ozga tushirdi. Eshitganlariga o'zi ham amal qildi.

Muhammad al-Buxoriyning bilimi tufayli uning tug'ilgan yurti Buxoroni barcha tan oldi.



Hikmat

«Bilimdan boshqa najot yo'q va bo'lmagay».

Imom Buxoriy



2-ijodiy faoliyat

1. O'ylab ko'ring-chi, «Kimning farzandisiz? Tarbiya bergan ota-onangizga rahmat», «Qaysi maktabda o'qiysiz, sizga qoyilmiz, ustozingiz yaxshi ekan» degan e'tirofni eshitgan vaqtingizda sizni qanday tuyg'u qamrab oladi?
2. Hikoya yuzasidan qilgan xulosangizni berilgan hikmat bilan bog'lab ko'ring.
3. Matn asosida tushirib qoldirilgan so'zlarni toping va o'rniga qo'ying: «...dan boshqa ... yo'q va bo'lmagay».



Oila davrasida

1. Kattalar bilan quyidagi maqollarni muhokama qiling. Kitob o'qish inson hayotiga mazmun olib kiradi. Muvaffaqiyat kitob o'qigan insonga nasib qiladi. Bilim insonlar hayotini osonlashtiradi.
2. «Men Ahmad al-Farg'oniy kabi buyuk olim bo'lishim uchun...» degan fikrni davom ettirib, 12–14 ta gapdan iborat hikoya tuzing.



5-MAVZU: MAKTAB – ENG ULUG‘ DARGOH

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. Bir kunda qancha vaqtingiz maktabda o'tadi? Bir haftada-chi? Bir oyda-chi?
2. Maktabingizda siz uchun qadrlil bo'lgan narsalar bormi?
3. Hech o'ylab ko'rganmisiz, nima uchun maktabni «ulug' dargoh» deb atashadi?
4. Maktabingizni sog'inasisizmi?

Maktab ostonasiga ilk qadam qo'ygan kuningizni eslang. Birinchi qo'ng'iroq, birinchi ustoz, birinchi dars – bularning barchasi inson qalbida umrbod saqlanib qoladigan xotiralar. Maktab – ulug' dargoh. Darhaqiqat, jamiyatning faxri bo'lgan barcha insonlar aynan shu yerdan yetishib chiqadilar. Bunga qanday erishiladi? Albatta, bilim olishga va kitob o'qishga bo'lgan muhabbat tufayli. Bu yo'lda bizning eng asosiy ko'makchimiz ustozdir. Ustozning bergan tarbiyasi, o'git va saboqlariga qanchalik e'tiborli bo'lsak, yutuqlar cho'qqisiga shunchalik oson yaqinlashamiz.

Maktabni biz ikkinchi uyimiz deb bilamiz. Shuning uchun ham ta'til kunlarida biz ustozlarimizni va qadrdon maktabimizni sog'inamiz. Oilamiz davrasida bo'lgan suhbatlarda ham, ko'pincha, ota-onalarimiz o'zlarining maktab davrlarini, ustozlarini faxr va sog'inch bilan eslaydilar.



1-ijodiy faoliyat



1. Nima uchun maktabni ikkinchi uyimiz deb bilamiz?
2. Kelajak maktablarini qanday tasavvur qilasiz?



1



2



3



4



5



6



7



8

Maktabda o'zimizni qanday tutishimiz kerak?

Rasmlarning tagiga berilgan qoidalardan mosini yozing.

a) Partada to'g'ri o'tiring; b) Daftar-kitoblarning ustida ovqatlanmang; d) Maktabga kelganda tabassum bilan salomlashishni unutmang; e) Partangizning ustini tartibga soling; f) Maktab yo'laklarida baqirib gapirmang; g) Partaning ustida va ostida ortiqcha narsalar bo'lmasligi kerak; h) Maktabga o'z vaqtida kelish kerak. Kech qolmaslikka harakat qiling; i) Darslarga tayyorgarlik bilan keling.



2-ijodiy faoliyat



Har biringiz maktabda sizning qanday fe'l-atvoringiz shakllanganligi, sinfdoshlar bilan muloqot hayotingizda qanday ahamiyatga ega ekanligi, o'qituvchilardan nima-ni o'rganishingiz haqida 10–12 jumladan iborat hikoya tuzing. Guruhlarga bo'lining va yozgan narsalaringizni sinfdoshlaringiz bilan o'rtoqlashing.

Ushbu jadvalni daftaringizga chizing va uni to'ldiring:

Maktabga borishdan maqsad	Maktab qadriyatlari	Maktabning nomini yuksaltirish uchun taklif	Maktab qoidolari

Oila davrasida



Yaqinlaringiz bilan suhbatlashing. Ularga quyidagi savollarni bering:

1. Siz maktabga zavq bilan borganmisiz?
2. Imkoniyat bo'lganda yana maktabga borarmidingiz?
3. Maktab bilan bog'liq qanday xotiralarni eslay olasiz?
4. Sizga harf o'rgatgan ustozingizning ismi esingizdami?
5. Maktabdagi nojo'ya harakatingiz uchun sizni qanday jazolashgan?
6. Kundalik daftaringizda nechta «a'lo» baho bo'lgan?
7. Maktab davringizni eslaganingizda biror narsadan afsuslanganmisiz?



6–7-MAVZULAR: KITOB – BUYUK DONISHMAND



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Birinchi kitoblar qachon va qayerda paydo bo'lganini bilasizmi?
2. Bitta kitob tayyorlash uchun qancha odamlar mehnat qilishini hech o'ylab ko'rganmisiz?
3. Shu kungacha darslikdan tashqari qancha kitob o'qigansiz?
4. Qanday kitoblarni o'qishni yaxshi ko'rasiz?

Siz men haqimda juda ko'p ma'lumotlarga egasiz. Shunday bo'lsa-da, o'zim haqimda bir-ikki og'iz gap aytmoqchiman.

Dunyodagi eng boy odamdan eng katta orzusi haqida so'rashibdi. «Qaniydi, dunyodagi barcha kitoblarni o'qish uchun yetarli vaqtim bo'lsa edi», – debdi u.

Shunda uning qanday qilib bu darajada boyib ketganini tushunishibdi...

Men haqimda quyidagilarni bilib oling:

- maza qilib dam olmoqchi bo'lganlar bizni o'qiydilar;
- bir boshdan varaqlaganlar juda ko'plab sirlarni bilib oladilar;
- belgilangan tartib-qoidalarga amal qilmaganlarning sog'lig'iga ziyon yetkazib qo'yamiz. Yoki sahifalarimiz yirtilsa, sirlarimizni yo'qotib qo'yishingiz mumkin.





Ijodiy faoliyat



Zehningizni sinab ko'rishimga rozimisiz? Rasmlarni diqqat bilan kuzating. Bu holatlar sizga tanishmi?



Rasmlar asosida gaplarimni izohlang:

1. Kitobning orasiga qalam yoki boshqa narsa qo'ymang. Chunki _____ mumkin.
2. Kitobni _____ o'qish mumkin _____.
3. Kitobni yurib ketayotganda _____ mumkin _____.
4. Kitobni _____ qo'l bilan _____.
5. Kitobni _____ o'qish kerak.
6. Kitobga _____ mumkin emas.



Yaxshi kitobxon bo'lish uchun quyidagi maslahatlaringizga amal qiling.

O'qigan kitoblaringizni do'stlaringiz bilan muhokama qiling.

O'qiganlaringizni oila davrasida so'zlab bering.

Voqealarni ko'z oldingizdan o'tkazing.

Kitob qahramonlari haqida do'stlaringiz fikrini biling.

Har kuni bir soatni mutolaa uchun ajrating.

Kitob tanlashda kattalar bilan maslahatlashing.

* * *

Taraqqiyotga izoh kerak bo'lsa, kutubxonalarga boqing...

So'nggi yillarda Hindiston va Xitoy «jahonning eng kitobxon davlatlari» reytingida yetakchilikni saqlab turishibdi. Bu ikki davlatda yashayotgan xalq haftasiga 10 soatdan oshiqroq vaqtlarini kitob o'qishga sarflashadi.

Koreyaliklar esa o'qiganlarini amalga tatbiq etish borasida dunyoda singapurliklardan keyin ikkinchi o'rinda turadi. Koreyada, asosan, muhandislik, axborot texnologiyalari, tibbiyot yo'nalishidagi, aniq fanlarga oid kitoblar yaxshi o'qilmoqda.





Yuqoridagi davlatlarning ayni kunda jadal rivojlani-
nishidan ham ko'rinib turibdiki, kitobxonlik va bu orqali
bilimlarni o'zlashtirish jamiyat taraqqiyotida alohida aha-
miyatga ega.

Oila davrasida



1. Maqolni davom ettiring.

Kitob – bilim bulog'i _____ o'rtog'i. Kitob _____ donish-
mand. Kitob _____, bilim _____. Kitobdan yaxshi _____
yo'q. (*do'st, xazina, buyuk, o'quvchining, boylik*)

2. Jadvalda kitob haqidagi maqollar chalkashtirib berilgan.
Siz ularni tartibga solib o'qishingiz kerak.

Ko'p o'qigan,	eng yaxshi do'st
Kitob bilan do'st bo'lsangiz –	kitobsiz, xuddi qo'lsizdek
Oltinni yerdan qazib olishadi,	bilim manbayi
Kitob – sening do'sting,	ko'p biladi
Yaxshi kitob	aql olasiz
Kitob –	bilimni kitobdan

3. Kattalar bilan birga maqollarning birini rasmda ifodalab
bering.

Bilasizmi?



Kitob o'qish qalbni yumshatadi.

Kitob aqlni charxlaydi.

Kitob hayotdagi maqsadni anglashga va qiyinchiliklarni
yengishga yordam beradi.

Kitob o'qish xotirani mustahkamlaydi.

Kitob o'qish tasavvurni kengaytiradi.

Kitob o'qish so'z boyligini oshiradi.

Kitob o'qish ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi.

Kitob o'qish yaxshilik qilishga undaydi.



8-MAVZU: BILIM – TENGSIZ XAZINA



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Bilimni nima uchun «tengsiz xazina» deyishadi?
2. Bilim haqida qanday hikmatlarni bilasiz?
3. Siz kelajakda kim bo'lishni orzu qilasiz? Orzu qilgan kasbingizni egallash uchun qanday bilimlar kerak bo'ladi? Buning uchun siz qanday tayyorgarlik ko'ryapsiz?

Qirg'oqqa yetishiga uch yuz chaqirim qolgan kema kutilmaganda o'chib qoldi. Uni tuzatish uchun ustalarning urinishlari foydasiz bo'ldi. So'rab-surishtirib, kema yo'lovchilari orasidan uni tuzatish uchun kekxa ustani topib kelishdi. U kema dvigatelini tekshirdi, son-sanoqsiz mis naychalarni ko'zdan kechirdi. So'ng asboblarni solingan jomadonni ochib, ichidan ingichka sopli bolg'a va kichik to'qmoqchani oldi.

Usta goh to'qmoqcha, goh bolg'a bilan mis naychalarni va silindrni sirli maromda urar, atrofdagilar uning harakatlaridan hayratda edilar. Ulkan kemada yangrayotgan bolg'aning tovushi shovullagan dengizning ovozi bilan uyg'unlashib ketdi.

Kekxa usta hamma narsani unutgan, go'yo kuyni mahorat bilan chalayotgan san'atkordek ishga berilgan edi.





Nihoyat, bolg'a va to'qmoqchanning taqillashi to'xtadi. Kema ko'ksida momaqaldiraqdek yangragan motor tovushidan barchaning kayfiyati ko'tarilib ketdi.



Usta ish haqi uchun ikki million so'm to'lashlari kerakligini aytdi. Kema egasi darg'azab bo'ldi. «Qari chol esini yeb qo'yibdi! Bolg'ani taqillatib shuncha pul ishlayman, deb o'ylagan bo'lsa, chuchvarani xom sanabdi!» – debdi. So'ng choldan ish haqiga oydinlik kiritib, xarajatlar ko'rsatilgan to'lov qog'ozini so'rabdi.

Ko'p o'tmasdan idoraga ustadan xarajatlari aniq-tiniq yozilgan to'lovnoma kelibdi. Unda quyidagi xarajat va narxlar yozilgan ekan:

«Bolg'a bilan urishga ikki yuz ming so'm.

Qayerga, qay maromda urishni bilganlik uchun bir million sakkiz yuz ming so'm».

1-ijodiy faoliyat



1. Yuqoridagi hikoyaning qaysi joyi sizga qiziq bo'ldi?
2. Kema tuzatilmaganida kemadagilar qancha talafot ko'rishlari mumkin edi?
3. Siz nima deb o'ylaysiz, usta haqmi?
4. Hikoyani «Bilim – barcha kulfatlarga qalqon» degan ibora bilan bog'lab tushuntiring.
5. Hikoyaga sarlavha qo'ying.

Hikmat



Ilm sahroda do'st, hayot yo'llarida tayanch,
yolg'izlik damlarida yo'ldosh, baxtiyor daqiqalarda
rahbar, qayg'uli damlarda madadkor, odamlar
orasida zeb-u ziynat, dushmanlarga qarshi kurashda
quroldir.



Xalqaro fan olimpiadalari haqida bilasizmi?

Maktablarda o'quvchilarning bilimlarini, iqtidorini sinash maqsadida fan olimpiadalari o'tkaziladi. G'olib o'quvchilar keyingi bosqichda kuchliroq guruhlarda bilimlarini sinash uchun bellashadilar. Respublikada yuqori natijalarga erishgan o'quvchilar esa xalqaro olimpiadalarga yo'llanma olishadi. Bugungi kunda o'zbekistonlik maktab o'quvchilari xalqaro miqyosda o'tkaziladigan fan olimpiadalarida faol ishtirok etmoqdalar.

2019-yilda Janubiy Afrika Respublikasida o'tkazilgan Xalqaro matematika musobaqasida qatnashgan 500 nafardan ortiq iqtidorli ishtirokchilar orasidan o'zbek o'quvchilari 14 ta medalni qo'lga kiritdilar.

Buxorolik 7-sinf o'quvchilari Anvarjon Rahmatov oltin medal, To'ymurod Qodirov va urganchlik Bekzod Maqsudov bronza medal bilan taqdirlandilar.



2-ijodiy faoliyat

1. Siz qaysi fandan olimpiadada ishtirok etib o'z bilimingizni sinashni xohlaysiz?
2. Fan olimpiadasida qatnashish uchun siz ko'proq nimalarga e'tibor berishingiz kerak?



3-ijodiy faoliyat



1. Muvaffaqiyatga erishish uchun nima qilish kerak?
2. Quyidagi so'zlar asosida insonning muvaffaqiyatga erishishi to'g'risida hikoya tuzing.
3. Yana qanday so'zlarni taklif qilasiz?



Oila davrasida



1. Siz qanday to'garaklarga borasiz?
2. Oila a'zolaringiz qanday kasblarda ishlaydilar? Siz ularning kasbini davom ettirasizmi yoki boshqa kasb tanlaysizmi?
3. «Mehnatsevarlik + sabr-toqat + qunt = puxta bilim». Ushbu qoidadagi har bir xislatni yoritib bering.
4. «Ilmni takrorlash bilan bog'lab oling» deganda nimani tushunasiz?



TAKRORLASH

MEN BULARNI BILIB OLDIM

Bugungi darsda biz sizlar bilan o'tilgan mavzular yuzasidan olgan bilimlaringizni yana bir bor takrorlaymiz. Guruhlarga bo'ling. Har bir guruh o'ziga berilgan mavzu ustida ishlaydi. Mavzuni sinfga qanday taqdim etishingizni muhokama qiling.

Taqdimotga tayyorgarlik ko'rayotganda quyidagi uchta savolga javob bering:

1. Bu mavzuni o'rganishdan avval menda qanday ma'lumotlar bor edi?
2. Ushbu mavzudan nimalarni bilib oldim?
3. Men bu bilimlarni kundalik hayotda qanday qo'llashim mumkin?

Bilar edim	Bilib oldim	Qo'llayman

1-mavzu: Vatan madhi. Biz har doim Vatanni onaga qiyoslaymiz.

2-mavzu: O'zbekiston – ko'p millatli davlat. O'zbekistonda 130 dan ortiq millat vakillari yashaydi.

3-mavzu: Mard va jasur inson – Vatanning tayanchi. Yurt tinchligi uchun kimlar mas'ul?

4-mavzu: Bobolarimizning bebaho merosi. Ahmad al-Farg'oniy – buyuk astronom. Nil daryosi sathini o'lchovchi inshoot. Imom Buxoriy merosi.

5-mavzu: Maktab – ulug' dargoh. Maktabda o'zimizni qanday tutishimiz kerak?

6–7-mavzular: Kitob – buyuk donishmand. Yaxshi kitobxon bo'lish uchun maslahatlar.

8-mavzu: Bilim – tengsiz xazina. Usta haqi ikki million so'm...



9-MAVZU: VATAN BAYROG'INI BALAND TUTAYLIK

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. Mamlakatimiz bayrog'i qayerlarda hilpirab turganligiga e'tibor berganmisiz?
2. Mamlakatimizning bayrog'i ko'tarilayotganida qanday hurmat ko'rsatiladi?
3. Nima deb o'ylaysiz, madhiyamiz ijro etilganda nima uchun o'ng qo'lingizni ko'ksingizga qo'yib turasiz, bu harakat nimani anglatadi?

G'olib bokschilarning ring maydonida Vatan bayrog'ini ko'tarib mag'rur turishlariga havas Shahram akangizni boks dunyosiga butunlay bog'lab qo'ydi.

U o'z oldiga maqsad qo'ydi – jahon chempioni bo'lish!

Bo'lajak chempion balandlarda hilpirayotgan O'zbekiston bayrog'ini ko'z oldiga keltirib, faxrlandi. Sabr, qunt va tinimsiz mashqlar, soatlab davom etgan mashg'ulotlarda u o'ziga «Mehnatning tagi rohat, hozir qiynalsang, jangda g'alaba qozonishing oson bo'ladi», deb aytar edi.

O'zbekiston bayrog'i unga yo'l ko'rsatuvchi yulduz bo'ldi – bir zumga bo'lsa-da, undan ko'zini uzmadi, charchaganida bayroq uni ruhlantirdi.

2017-yil 2-sentabr. Germaniyaning Gamburg shahrida o'tkazilgan boks bo'yicha jahon chempionatining final uchrashuvida Shahram G'iyosov kubalik raqibiga qarshi ringga chiqdi.

U o'ziga xos tezkor uslubi bilan g'alaba qozondi – 5:0! Hakam-





lar barcha raundlarda Shahramga katta ustunlik bilan g'alaba berishdi.

Nihoyat, chempionlik shohsupasiga ko'tarilgan Shahram G'iyosov unga kuch-g'ayrat bergan O'zbekiston bayrog'i bilan yuzlashdi. U hamma bayroqdan balandda turgan ona Vatan bayrog'ida millionlab o'zbekistonliklarning ushalgan orzusi, quvonchini ko'rdi.

Har bir inson ong-u shuuriga Vatanimiz ramzlariga nisbatan chuqur hurmat tuyg'ularini singdirish, umummilliy va ehtirom timsollari bo'lgan bayroq, gerb va madhiyamizni ulug'lash va ardoqlash barchamizning muqaddas burchimizdir.

Toki bayroq bor ekan, millat bor, davlat bor, Vatan bor. O'zbekiston farzandlari qayerda bo'lmasin, qanday natijalarga erishmasin, Vatan bayrog'ini ardoqlaydi. Chunki bayroq – hurlik timsoli, ezgulik, tinchlik ramzidir!



1-ijodiy faoliyat

1. Shahram akangizning chempion bo'lishiga yurtimiz bayrog'i qanday yordam berdi?
2. Shahram G'iyosovdagi qaysi fazilatlar unga chempion bo'lishiga yordam berdi?
3. Siz Shahram G'iyosov bilan uchrashib qolsangiz, unga nima deb savol bergan bo'lardingiz?
4. Siz ham Vatanimiz bayrog'ini ko'klarga ko'tarishni istaysizmi? Qanday qilib?
5. Shahram G'iyosovning «Muvaffaqiyat xaritasi»ni chizing.



TARIX TILGA KIRGANDA

Buyuk Sohibqiron Amir Temur g'oliblik bayrog'ini yuksak ko'tardi. Bu bayroq ostida buyuk el birlashdi, u barpo etgan ulug' saltanatni dunyo tan oldi. Bayroq esa tom ma'noda mamlakat ramzi, ulug'vorlik timsoliga aylandi. Jangchilarga jangovar ruh bag'ishlash, ularning kayfiyatini ko'tarish, irodasini chiniqtirish maqsadida jang maydonlari uzra baland hilpirab turdi. Bayroq eng ishonchli bahodirlar tomonidan qo'riqlandi. To'satdan daydi o'q kelib tug' ko'targan jangchiga tegsa-da, bayroq tuproqqa qorishmadi – darhol uning o'rnini boshqasi egaladi. Bundan maqsad, janggohdagilarga bayroq ko'rinmay qolmasin.

Sohibqiron bobomiz zamonida bayroqni past tutish yoki sarbozning qo'ldan tushib ketishi xosiyatsiz sanalgan. Bayroqning pasaytirilishi mag'lubiyat va ortga chekinish ishorasi bo'lgan.



2-ijodiy faoliyat



1. Amir Temur qo'shinlari jangga kirkanda bayroqqa qanday munosabat bildirganlar?
2. Jang maydonida bayroqning baland hilpirashi jangchilarni qanday ruhlantiradi?
3. Tug' ko'targan jangchining holatini qanday tasavvur qilasiz?





YODDA TUTING!



O'zbekiston Respublikasi davlat bayrog'ida aks etgan yarimoy – O'zbekiston xalqining ko'p asrlik an'analariga muvofiq keladi. Yarimoy va yulduzlar musaffo osmon va tinchlikning ramzidir. Bayroqdagi 12 yulduz tasviri mukammallik belgisi.



Qoraqalpog'iston Respublikasining bayrog'idagi yangi chiqqan oy musulmonlarning muqaddas timsoli bo'lsa, besh yulduzning rasmi Qoraqalpog'istonning qadimiy va navqiron besh shahri – qoraqalpog'istonliklar turmush va ishonch qo'rg'onlarining timsoli hisoblanadi.



Oila davrasida

1. Davlatimiz bayrog'i qanday tadbirlarda yuqori ko'tariladi? Misollar bilan asoslang (xalqaro musobaqalar, tantanali kunlar...).
2. «Davlatimiz ramzlariga hurmat bilan munosabatda bo'lish» deganda nimani tushunasiz?
3. Kattalar yordamida o'z oilangiz (maktab, mahalla, shahar ham bo'lishi mumkin) ramzini chizib keling.
4. Daftaringizga quyidagi jadvalni chizib, kataklarni to'ldiring.

Davlatimiz ramzlari	Qabul qilingan sanasi	Shakli	Oy va yulduzlar ma'nolari	Ranglar ma'nolari	Boshqa belgilar ma'nolari
Bayroq					
Gerb					



10-MAVZU: YAXSHILIK QILISH HIKMATI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. Kimgadir yaxshilik qilganingizda nimani his qilasiz?
2. «Yaxshilik qilish» deganda nimani tushunasiz?
3. O'rtog'ingiz uyga vazifani bajarmay keldi. Siz unga daf-taringizdan ko'chirishga ruxsat berdingiz. Bu, sizningcha, yaxshilikmi?



YAXSHILIKNING MUKOFOTI

Rustam aka o'g'li Abdullohning operatsiyasi uchun zarur bo'lgan mablag'ni topish maqsadida uyini sotuv-ga qo'ydi. Uyning tez sotilishini eshitgan xaridorlarning keti uzilmay qoldi. Erta bilan darvoza oldiga mashina kelib to'xtadi. «Rustam aka, o'zingizmisiz?» – quchoq ochib kela boshladi mashinadan tushgan mehmon. Rustam aka kursdoshi G'ayratni tanidi. Ikki do'st xursand bo'lib ko'rishdilar va uy egasi mehmonni ichkariga taklif qildi.

– Aka, siz bilan jon deb ertalabgacha gaplashib o'tirar edim-ku, lekin uyga qaytishim kerak, yo'l olis, ertaga xorijlik hamkorlar bilan uchrashuvim bor, – deya gapida davom etdi G'ayrat aka. – Esingizda bo'lsa, og'ir ahvolda kasalxonada yotganimda mening holimdan xabar olgani borib, qo'limga pul berib ketgan edingiz.

– Bunday voqeani eslay olmayapman, – dedi Rustam aka xijolatdan yuzi qizarib.

– Menga bergan o'sha pulingizni to'plab, uzum ko'chatlari sotib oldim. Hozir o'sha uzum-larim ancha-muncha hosil beryapti. Siz-ning pulingizga ekilgan ko'chatlardan ulu-shingizni olib keldim, – deya minnat-dorligini bildirdi G'ayrat aka.





G'ayrat aka mashina yukxonasini ochib, kattagina qora sumkani Rustam akaning qo'liga tutqazdi. «Do'stim mayiz olib kelibdi-da», deb o'ylab, mehmonning qo'lini qaytara olmadi Rustam aka.

Xayolidan o'g'li ketmayotgan Rustam aka G'ayrat aka tashlab ketgan sumkani ochib, lol qoldi. Unda o'g'lining operatsiyasidan ham ortib qoladigan miqdorda pullar bor edi...



1-ijodiy faoliyat

1. «Yaxshilik qil-u, uni unut» maqolini hikoya bilan bog'lang.
2. Foydasini ko'zlab qilingan xayrli ishni yaxshilik deb bo'ladimi?
3. «Har bir savob ishning ajr-u mukofoti bordir» hikmatiga hayotiy misol keltiring.
4. Hafta davomida qilgan ishlaringizni yozib, quyidagi jadvalni to'ldiring.

T/r	Yaxshi harakatlarim	Yomon harakatlarim	
		Tuzatdim	Tuzata olmadim




Hikmat

Qo'lingdan kelsa yaxshilik qil. Yaxshilik qila olmasang, hech bo'lmasa, yomonlik qilma.



Oila davrasida

1. Bir kunda necha marta yaxshilik qilasiz?
2. Sizning tasavvuringizdagi yaxshilik qanday rangda?
3. Yaxshilikning ta'mini nimaga o'xshatasiz?
4. Yaxshilikni rasmda ifodalab bering.



Oldingizda 3 ta yo'l turibdi. Bu yo'llardagi vaziyatlarni o'qib chiqing, ulardan birini tanlang. Tanlovingizni izohlab bering.



ILHOMJON NIMA QILSIN?

Ilhomjon maktab hovlisiga shoshilib kirib keldi. To'garakka kech qolayotganligi uchun yonidan uchib o'tgan koptokka ham, stadiondagi o'quvchilarning so'zlariga ham e'tibor bermadi.

Yuqori sinf o'quvchilaridan biri unga: «Ko'zing bormi, koptokni qaytarsang bo'ladi-ku!» – deb baqirdi.

Ilhomjon indamay yo'lida davom etdi. Yuqori sinfda o'qiydigan Davronning koptokni unga qarab tepганиni ko'rmay qoldi. Orqasiga kelib urilgan qattiq zarbadan Ilhomjon dovdirab qoldi.

– Nima, gapga tushunmaysanmi? Koptokni tepib yuborsang, kamayib qolarmiding? – baqirdi Davron.

– Uzi, men mashg'ulotga kech qolayotgan edim, – dedi Ilhomjon.

Bir zumda uning atrofini futbol o'ynayotgan yuqori sinf o'quvchilari o'rab olishdi.

– Kattalarning hurmatini joyiga qo'yish senga o'rgatilmaganmi? – deya Davron Ilhomjonning sumkasi-dan tortdi.

– Men to'garakka borishim kerak, – Ilhomjon yo'lida davom etmoqchi bo'ldi.

– Menga qara, avval o'zingdan kattalarga xizmat qilishni o'rgan, xo'pmi?

Davron Ilhomjonning yelkasidan tutdi. Ilhomjon nima qilishini bilmay shoshib qoldi...



2-ijodiy faoliyat

1. Sizningcha, bu yerda kim xato qildi?
2. Davronning o'rnida bo'lganingizda nima qilar edingiz?
3. Bu kabi holat yuzaga kelmasligi uchun nima qilish kerak?
4. Agar siz o'sha yerda bo'lganingizda nima qilgan bo'lar edingiz?
5. Hikoyani davom ettiring.




11–12-MAVZULAR: IMKONIYAT VA MATONAT

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. Imkoniyat nima?
2. Mavjud imkoniyatlardan qanday foydalanasiz?
3. Imkoniyatlaringizni sanab ko'rganmisiz?
4. Imkoniyatlaringizni qanchalik qadrlaysiz?
5. Rasmdagi bolaning qanday imkoniyati bor?



* * *

Bilasizmi, «salomatligi tufayli imkoniyati cheklangan» degan so'z, ko'pincha, tug'ma nogiron yoki baxtsiz hodisa tufayli biror tana a'zosini yo'qotgan, xastalanib qolgan insonlarga nisbatan ishlatiladi.



Insonga orzulariga erishishi uchun jismoniy kamchilik to'siq bo'la oladimi?

Aaron Fotingem ismli mashhur sportchi bor. U imkoniyati cheklanganlar aravachasiga mixlanib qolgan. Oldiga qo'ygan aniq maqsadiga erishish yo'lidagi tinimsiz mehnati va harakatlari tufayli u sportda nom

qozona oldi. Aaronning aravachada turib bajaradigan chaqqon harakatlari tomoshabinlarni hayratda qoldiradi.

– Hayot senga o'tirish uchun aravacha bersa, u senga to'siq bo'lishiga yo'l qo'yma. Aksincha, unda uchish uchun o'zingda kuch top! – deydi sportchi.



1-ijodiy faoliyat

Rasmga e'tibor bilan qarang. Bu insonlar o'z imkoniyatlaridan qanday foydalanishmoqda? Ularning matonatiga baho bering.





2-ijodiy faoliyat



1. Nimalar insonning jismoniy salomatligi uchun jiddiy xavf tug'diradi?
2. Quyidagi qaysi omillar inson salomatligiga bir umrlik shikast yetkazishi mumkin?
3. Xatarli shikastlanishlarning oldini olish mumkinmi?

Suvda o'zini
tutish qoidalarini
buzish

Kundalik
hayotdagi xavflar

Yo'l harakati
qoidalariga
rioya qilmaslik

Tug'ilganidan

Tog'larda ayrim
qoidalarga rioya
qilmaslik

Tabiiy ofatlar

Boshidan kechirgan
kasallik



Hikmat



Jismoniy kamchilik emas, maqsadning yetishmasligi inson imkoniyatini cheklaydi. Bu hayotda hech kimning imkoniyati cheklanmagan. Aksincha, barchaning o'ziga xos iste'dodi bor. Muvaffaqiyatning asosi – mashq va harakat. Intilganga doim omad kulib boqadi.



Har gal biz imkoniyati cheklanganlarga yordam berish, ularga samimiy munosabatda bo'lish, yaxshilik qilish uchun yordam qo'lini cho'zish orqali ularga mehr ko'rsatamiz.

Yaxshilik qilish – bu...

do'stlikni taklif qilish;

e'tiborli bo'lish;

qiyin vaziyatlarda qo'llab-quvvatlash;

darslarni tayyorlashda hamkorlik qilish;

qiziqarli kitobni birgalikda o'qish;

kundalik yumushlarga yordam berish;

yo'lni kesib o'tishda hamrohlik qilish;

mehr-oqibat ko'rsatish.



3-ijodiy faoliyat

1. Siz salomatligi tufayli imkoniyati cheklangan odamlarga nima deb murojaat qilgan bo'lar edingiz?
2. Aaron Fotingemning taqdiridan qanday hayotiy saboq oldingiz?
3. Salomatligi tufayli imkoniyati cheklangan bolalar uchun qanday qiziqarli, ko'ngilochar o'yinlarni taklif qilishingiz mumkin? Buning loyihasini tuzishga harakat qiling. Kattalardan maslahat so'rang.



Odobli bola jismoniy imkoniyati cheklangan insonlar bilan suhbatda quyidagi qoidalarni unutmasligi lozim:

1. Shirin soʻzlar bilan ruhlantirish, yaxshi muomalada boʻlish;
2. Nogironlik aravachasidagi insonlar bilan suhbatlashganda, ularga engashib, qaddini egibroq gapirish, bu oʻzaro hurmatni anglatadi;
3. Gapirishida nuqsoni boʻlgan insonlarga qisqa, javob qaytarish oson boʻlgan savollarni berish;
4. Eshitish, koʻrishga qiynaladigan insonlardan ular bilan qayerda va qanday usulda suhbatlashish qulay ekanligini soʻrash.

4-ijodiy faoliyat



1. Koʻzlaringizni yuming va qogʻozga uy yoki quyoshning rasmini chizishga harakat qiling. Vazifani bajara oldingizmi? Buni qilish qiyin boʻldimi?
2. Koʻzingizni mato bilan bogʻlab, javondagi kitobni olishga harakat qiling. Vazifani bajara oldingizmi? Yoʻlni koʻrmay yurib ketayotganingizda nimani his qildingiz?
3. Bir qoʻlingiz bilan oyoq kiyimingiz bogʻichini yoki boshqa narsani bogʻlashga harakat qilib koʻring. Qila oldingizmi? Bu vazifani bajarayotganingizda ikkinchi qoʻlingizni ham ishlatgiz keldimi?

Oila davrasida



Oila aʼzolaringiz bilan shukur qilish va matonat haqida suhbatlashing. Kichik hikoya tuzing.



13-MAVZU: ROSTGO'YLIK



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Noto'g'ri ish qilib qo'ydingiz. Uni yashirish uchun yolg'on gapirganmisiz?
2. Nima uchun yolg'onning umri qisqa deyishadi?
3. Yolg'on gapirishni nima uchun yomon odat deb ta'riflaymiz?
4. Rostgo'ylik haqida hikoyalar bilasizmi?

SHER BILAN DURROJ

Bir o'rmonda Sher va Durroj yashar ekan. Sher-ning kichkinagina bolasi bo'lib, u hali yurishni bilmas ekan. Onasi uni juda yaxshi ko'rar va qumursqa halok qilmasin deb, doimo tishida tishlab olib yurar ekan. Kunlardan bir kuni Sher bolasini tishlab olib yurganida Durroj pir etib, sherning boshi ustidan uchib o'tibdi. Sher cho'chib ketibdi va bolasini qattiq tishlab olibdi. Bolasining joni og'rib, yig'lab yuboribdi. Sher bu ishdan juda xafa bo'libdi. U bolasining yara bo'lgan joyini tili bilan yalab-yalab qo'yibdi. Bolasi tinchlanibdi.





Durroj Sherni doim shunday cho'chitib yurishni odat qilibdi. Nihoyat, Sher Durroj bilan do'stlashmoqchi bo'libdi va unga: «Kel, shu o'rmonda birga do'st bo'lib, tinchgina yashaylik... Sen ashulalar aytib, meni xursand qil. Biror kimsa seni xafa qilsa, men hamma vaqt senga yordam beray», – debdi. «Xo'p, kel, do'st bo'lamiz», – debdi Durroj ham.

Kunlardan bir kuni Durroj: «Men tuzoqqa tushdim, yordam ber!» – deb qichqiribdi. Sher yordam berish uchun yuguribdi. Qarasa, Durroj uni aldabdi. U hech qanaqa tuzoqqa tushmagan ekan. Sher do'stidan xafa bo'libdi. Unga qarab: «Yolg'on so'zlamagin, yolg'onchi el oldida uyalib qoladi», – debdi. Ammo Durroj Sherning gapiga quloq solmabdi, yolg'onchiligini, aldashini qo'ymabdi.

Kunlardan bir kuni Durroj rostdan ovchi qo'ygan tuzoqqa tushib qolibdi. «Dod! Meni tutib oldilar! Yordam beringlar!» – deb jon-jahdi bilan qichqiribdi. Sher uni eshitibdi. Yordamga bormoqchi bo'libdi-yu, keyin o'ylab qolibdi: «Har galgidek bu gal ham meni aldayotgandir. Bormayman», – debdi-da, iziga qaytibdi.

Alisher Navoiy



Ijodiy faoliyat



1. «Sher bilan Durroj» hikoyasidan qanday xulosaga keldingiz?
2. Durroj do'st bo'lishning qaysi qoidalarini buzdi?
3. Durrojning yolg'onchiligi qanday oqibatga olib keldi?



Hikmat

O'zingning zararingga bo'lsa-da, doimo rost so'zla. Rostgo'ylikda hikmat ko'p.



Oila davrasida

1. Siz do'stingizning yolg'onchiligini bilsangiz, u bilan do'stlashishni davom ettirar edingizmi?
2. Kattalardan shunday holatda ular nima qilishganligini so'rang.
3. Nuqtalar o'miga tushirib qoldirilgan so'zlarni qo'ying. «Yolg'on ..., yolg'onchi el oldida ... qoladi».
4. Yolg'on so'zlamaslik haqida yana qanday hikoyalarni bilasiz?
5. Quyidagi berilgan gaplarni rost va yolg'onga ajratib, kerakli qoplarga soling. Qoplarning rangi nega oq va qora ekanligini tushuntiring.

1. Ob-havo yomon bo'lganda maktabga borish shart emas.
2. Yakshanba kuni dars tayyorlamasa ham bo'laveradi.
3. Oyim uyda yo'q paytlarida ham vazifalarimni bajarishim kerak.
4. Badiiy kitoblarni ko'p o'qish kerak.
5. Faqat bo'sh vaqtda telefonda o'yinlarni o'ynash yaxshiroq.

6. Darslarni o'z vaqtida bajarish kerak.

7. Birovning narsasini beruxsat olmaslik kerak.

8. Ayb ish qilganda darrov uzr so'rash kerak.

9. O'zidan kichiklarni hurmat qilish kerak.





14–15-MAVZULAR: HALOLLIK – MUVAFFAQIYAT KALITI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. Nima uchun halol insonga nisbatan rostgo'y iborasi ishlatiladi?
2. Inson halol bo'lishi uchun nimalarga e'tibor berishi kerak?
3. «Birovning haqi» deganda nimani tushunasiz?

Bir kuni novvoy qishloq oqsoqolining oldiga borib, do'konchining ustidan shikoyat qilibdi. «Men undan non uchun har kuni 1 kg sariyog' sotib olaman. Bugun olgan sariyog'ni tarozida tortsam, qadoqda 800 gramm sariyog' bor ekan. U har gal 200 gramm sariyog' urib qolsa, mening nonim mazali chiqmaydi, xonavayron bo'laman. Sizning oldingizga adolat istab keldim», – debdi novvoy oqsoqolga.

Ko'p o'tmasdan do'konchini olib keldilar. O'ziga qo'yilgan ayblovni eshitgan do'konchi avvaliga jahli chiqib ketdi. Bir fursat o'tib, xotirjamlik bilan gap boshladi:





«Oqsoqol, bugun odatimga ko'ra ertalabdan novvoydan non olib, so'ng do'konga borgan edim. Sariyog' o'lchayotganimda tarozining toshini topa olmadim. Shuning uchun pallaga novvoydan olgan issiq nonning ikkitasini qo'ygan edim. Chunki novvoy nonni menga sotayotganda, uning 500 gramm ekanini aytgan edi».

Oqsoqol biroz o'yga cho'mgach, novvoyning do'konidagi issiq nondan bir nechta keltirishlarini so'radi. Keltirilgan nonlarni o'lchab ko'rishsa, ularning barchasi me'yoridan ancha yengil chiqibdi.

Tegishli jazoni olgan novvoy qishloqdoshlari qarshisida uyatdan mulzam bo'libdi.



1-ijodiy faoliyat

1. Novvoy nima sababdan uyaliq qoldi?
2. Hikoyadan qanday xulosa chiqardingiz?
3. Hikoyaga sarlavha qo'ying.
4. Bir kunda necha marotaba birovning haqiga duch kelasiz?
5. Quyidagi maqol va hikmatlarni to'ldiring.

1. Yaxshilikni, avvalo, _____ qil.
2. Yomonlik bilan _____ erishib bo'lmaydi.
3. Kim yaxshilik qilsa, o'zi ham _____ ko'radi.
4. Butun hayoting davomida _____ bo'lishni istasang _____ bo'l.
5. _____ eng yaqin turadigani – halollik.

(Foydalanish uchun so'zlar: *buyuklikka, baxtli, halol, yaxshilik, ota-onangga, halollikka*)



Oila davrasida



1. Nuqtalar o'rniga quyidagi rasmlarda berilgan sifatlarni qo'ying. Fikringizni asoslang.
Adolatli va halol inson...
2. Yashiringan harflardan hikmatli so'zni toping.

Birinchi bo'lib
yordamga keladi

Ishonchli va sodiq
do'st bo'ladi



Muvaffaqiyatga oson
erishadi

Kerak paytda doimo
yoningda turadi

Unga hamma havas
qiladi

Yolg'on gapirmaydi

Hamisha hurmatga
sazovor bo'ladi

Haqiqatni aytishdan
qo'rqmaydi

k	d	a	d	b	l	o	t	r	k
d	u	s	a	o	d	a	z	d	d
v	u	ch	l	d	h	sh	q	u	a
s	e	b	k	s	y	n	x	i	t

Hikmat



Rostgo'ylikda xavf-u xatar ko'rsangiz ham rost so'zlang. Shunda najot topasiz. Garchi foyda ko'rib turgan bo'lsangiz ham, yolg'ondan saqlaning. Chunki yolg'onning oxiri voy.



Qo'shimcha o'qish uchun

HALOLLIK URUG'I

Muvaffaqiyatli ishbiarmon na-faqaga chiqishga tayyorgarlik ko'ra boshlabdi. U ishini davom ettiruvchi uch nafar o'rinbosarini chaqirib, qo'llariga bittadan urug'

beribdi. «Men keyingi rahbarni tanlashim kerak. Siz bu urug'larni eking, parvarishlab, ikki oydan keyin menga ularni olib keling. Urug'larning holatiga qarab men kompaniyani kim boshqarishini ma'lum qilaman», – debdi.

Oradan ikki oy o'tib, uch o'rinbosar qo'llaridagi tuvak bilan kompaniya rahbari oldida hozir bo'libdi. Ulardan birining gul tuvagi bo'm-bo'sh ekan.

«Qoyilman!» – debdi rahbar uch nafar o'rinbosariga qarab. So'ng kompaniya rahbarini ma'lum qilibdi. Kompaniyaning yangi rahbari – tuvagida gul unmagani o'rinbosar edi. Chunki kompaniya rahbari ataylab urug'larni qaynatib, unmaydigan qilib bergan edi.



2-ijodiy faoliyat

1. Siz rahbarning o'rnida nima qilgan bo'lar edingiz?
2. Halol va to'g'riso'z bo'lishning natijasi nimada ekan?
3. Halol bo'lish uchun nimalarga e'tibor berish kerak?
4. Nima uchun «halollik – muvaffaqiyatlar kaliti» deyiladi?



TAKRORLASH

Mustaqil faoliyat



1. O'zingizdagi sahna, notiqlik va ijodkorlik mahoratingizni sinab ko'ring.

2. Quyidagi hikoya va rivoyatlarni kichik sahna ko'rinishida ifodalang.

1. Shogird ustozidan so'radi:
 – Agar mening yiqilganligim to'g'risida xabar kelsa, siz nima degan bo'lar edingiz?
 – O'ringdan tur!
 – Keyingi safar-chi?
 – Yana o'ringdan tur!
 – Bu yiqilib, yana turishlar qancha davom etishi mumkin?
 – Esingda bo'lsin! To tirik ekansan, yiqildingmi, o'ringdan turgin! Bu yorug' olamni tark etgan odamgina yiqilsa o'rnidan turmaydi.

2. Kunlarning birida donishmandning oldiga bir odam kelib, o'zining hayotidan shikoyat qildi. U hamma narsadan norozi edi – bo'yidan ham, yuzidan ham, aqlidan ham. Buning ustiga, ko'p narsalarni qila olmasligidan nolidi.

Donishmand uning nolishini uzoq tinglab turdi. Keyin uning qo'lidan ushlab, bog'ga olib kirdi:

– Qara, – dedi u. – Mana, qarag'ay va olma daraxti. Bu daraxtlarning qaysi biri chiroyli va foydaliroq?

– Ularni qanday taqqoslash mumkin? Bularning ikkalasi ham odamlarga kerak va ikkalasi ham yaxshi!

– Xo'sh, nega sen o'zingni boshqalar bilan taqqoslaysan va o'zingni ulardan yomonroq deb o'ylaysan?! Axir, har bir inson ham daraxt kabi o'ziga yarasha yaxshi va foydalidir.



Hikmat



Yaxshi kishi yaxshilik qila oladigan emas, yomonlik qilishni bilmaydigan kishidir.



16-MAVZU: TILGA HURMAT – ELGA HURMAT




Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nima uchun «Tilga hurmat – elga hurmat» deyiladi?
2. Ona tilingizda gapirganda boshqa tillardagi so'zlardan qanchalik foydalanasiz?
3. Tilga qanday hurmat ko'rsatilishini bilasizmi?
4. Qaysi chet tillarini o'rganyapsiz? Nima uchun?

TIL VA EL

Qadim zamonda ozod va obod bir mamlakat bor edi. Bu yerda odamlar baxtiyor yashar edilar. Kunlarning birida ushbu mamlakatga dushman hujum qilib, uni bosib olibdi.



Dushman askarlari mamlakat saroyini egallagan bo'lsalar ham, odamlarni o'zlarining qonun-qoidalariga bo'ysundira olishmabdi. Dushmanlar shohining boshi qotibdi. U tun-u kun qanday qilib bu mamlakat xalqining totuvligiga barham berib, o'z tomoniga og'dirib olish haqida o'ylay boshlabdi. Bir kuni vazirning aytgan qimmatli maslahatidan shoh quvonib ketibdi.

«Podshohim, bu xalqni jips-lashtirib turgan narsa, bu – ular-





ning ona tillaridir. Agar biz ularni o'zimizning tilda gaplashishga o'rgatsak, ular ona tillarini unutadilar va hamjihatliklari ham yo'qoladi», – debdi vazir.

Shunda podshoh farmon chiqarib, o'z tilidan voz kechgan va begona tilda gaplashadigan fuqarolarga mukofot, yaxshi ish va imtiyozlar berishni buyuribdi. Shohning va'dalariga uchgan ayrim odamlar o'z tillarini unuta boshlashibdi.

Natijada xalqning jipsligi va odamlar o'rtasida mehr-oqibat yo'qolibdi. Shohning sovg'alariga uchib, o'z og'a-inilarini ham dushmanga tutib beradigan sotqinlar paydo bo'libdi. Shu tariqa dushman bu xalqni uzoq yillar osonlik bilan boshqaribdi.

«Agar biror millatni yo'q qilmoqchi bo'lsang, avvalo, uning ona tilini yo'q qil», – degan ekan o'shanda dushman shohi.

Ijodiy faoliyat



1. Shohning «Agar biror millatni yo'q qilmoqchi bo'lsang, avvalo, uning ona tilini yo'q qil» degan fikrini siz qanday tushundingiz?
2. Tilini unutgan xalq yana nimalarini yo'qotadi?
3. Tilimizni unutmaslik uchun nimalar qilishimiz kerak?

Hikmat



«Qancha ko'p tilni bilsangiz, shuncha yaxshi. Biroq odam ona tilida tafakkur qiladi, ona tilida tush ko'radi, ona tilida yig'laydi...»

O'tkir Hoshimov



17–18-MAVZULAR: TEJAMKORLIK



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Nimalarni tejash kerak?
2. «Vaqtning ketdi – naqding ketdi» degan maqolni eshitganmisiz? Vaqtning qanday qilib tejash mumkin?
3. Sog'liqni ham tejash mumkinmi?
4. Tabiat ne'matlarini qanday tejash kerak?

Salimjon jismoniy tarbiya darsidan so'ng qorni juda ochganini his qildi. Yugurganicha maktab oshxonasiga kirdi. Ovqat, shirinliklar, ayniqsa, ustiga shakarli suv purkalgan do'mboqqina shirin kulchalarning yoqimli hidi dimog'ini qitiqlar edi. Salimjon shosha-pisha birinchi va ikkinchi ovqatni oldi. Salat, sharbatlarni patnisga qo'ydi. Non olish uchun qo'lini uzatdi.

– Voy, bolam, buncha nonni yeya olmaysan. Qorning to'ymasa, yana olarsan, shirin kulcha ham olibsan-ku, – dedi oshpaz xola.

– Hammasini yeyman, qornim juda och, – dedi ko'zlarini katta-katta qilib Salimjon.

– Osh bo'lsin, bolam, nonni isrof qilmanglar deymanda, – dedi kuyinib oshpaz xola.

Salimjon sharbat ichib, shirin kulchani yeb oldi. Birinchi ovqatni yarmigacha ichdi. Ikkinchi ovqatni umuman yeya olmadi. Nonlar ham idishda qoldi...



1-ijodiy faoliyat

1. Sizda ham shunday holatlar bo'ladimi?
2. Salimjonning harakatlariga baho bering.
3. Ushbu hikoyani oila davrasida so'zlab bering. Uning asosida o'zingizning taomnomangizni tuzishga harakat qiling.



2-ijodiy faoliyat



Soʻzlar ishtirokida matn tuzing:

1. Isrofgarchilik, tejamkorlik, qut-baraka, boylik, saxovat, xasislik, saxiylik, tadbirkor, shukrona, sabr.
2. Tushirib qoldirilgan soʻzlarni toping.
 - a) _____ oilaga baraka olib keladi;
 - b) _____ isrofga yoʻl qoʻymaslik;
 - d) _____ oʻlchab, bir kes.
 - e) _____ koʻl boʻlar;
 - f) _____ qilgan murodga yetar.

(Foydalanish uchun soʻzlar: *sabr, tejamkorlik, yetti, tejamkorlik – bu, toma-toma*)

Hayotimiz davomida bizga kerak boʻladigan koʻnikmalar qatorida tejamkorlik ham bor.

1. Taomni isrof qilmang. Idishga yeyishga koʻzingiz yetgan miqdorda ovqat soldirishga oʻrganing. Aks holda, taom isrof boʻladi.

2. Qogʻozni isrof qilmang. Har yili qogʻoz tayyorlash uchun dunyo boʻyicha millionlab daraxtlar kesiladi. Agar siz qogʻozni tejasangiz, daraxtlarni ham asrab qolgan boʻlasiz.

3. Suvni isrof qilmang. Qoʻl-yuz yoki tish yuvayotganda joʻmrakni ochiq qoldirmang. Toza suv – tabiatning noyob neʼmati.

4. Vaqtни isrof qilmang. Vaqt – bizga berilgan eng katta boylik. Kun tartibiga qatʼiy rioya qilishga odatlaning. Boshqalarning vaqtini ham zoye ketkazmang.





5. Tabiiy boyliklarni isrof qilmang. Tabiat bag'ridan olinadigan boyliklarning ham oxiri bor. Bizdan keyingi yashaydigan odamlar ham ulardan foydalanishlari zarur.

6. Sog'lig'ingizni asrang. Kiyinish va ovqatlanish madaniyatiga rioya qilishga odatlaning. Sport bilan shug'ullanganda, maxsus sport kiyimi va, ayniqsa, oyoq kiyimining mosini tanlashni unutmang. Kiyimni asrash, uni toza va ozoda saqlash ham tejamkorlik belgisidir.



3-ijodiy faoliyat

Rasmlarga diqqat bilan qarang. Quyidagi so'zlardan foydalanib, bu rasmlar yordamida mavzuga oid gaplar tuzing.

So'zlar: tejamkorlik, isrof, shukrona, salomatlik, elektr energiyasi, suv, vaqt, kiyim-kechak, maktab mulki, o'quv qurollari.





4-ijodiy faoliyat



1. Idishlarni yuvish uchun 50 litr, cho'milish uchun 300 litr, dush qabul qilishga 1 daqiqada 20 litr, kir yuvish mashinasida har safar 100 litr, 3 daqiqa davomida tish yuvishimiz uchun 30 litr suv ishlatilgan ekan. Nima deb o'ylaysiz, suvning bu qadar ko'p sarflanishi qanday oqibatlarga olib kelishi mumkin?
2. Rasmlar yuzasidan munosabat bildiring.

Hikmat



«Nimani xor qilsang, o'shanga zor bo'lasan».

Xalq maqoli



Bilasizmi?

1. 22-mart – Butunjahon suv kuni.
2. Odam gavdasining og'irligiga nisbatan 2% chamasi (1–1,5 litr) suv yo'qotsa, tashnalik paydo bo'ladi, 8–10% yo'qotsa, hushidan ketadi, 12% yo'qotsa, halok bo'ladi.
3. Inson hayoti uchun zarur bo'lgan chuchuk suv ko'p emas, u tabiiy suvlar umumiy hajmining 3% ini tashkil etadi.



Oila davrasida

1. Kattalar yordamida jadvalni to'ldiring:
 - a) kattalar ko'magida uyingizga qo'yilgan elektr energiyasi, suv, gaz hisoblagichlarining raqamlarini ko'ring va berilgan jadvalni to'ldiring (1-sana, raqamlar);
 - b) keyingi kuni shu vaqtda hisoblagichlarni yana bir marta ko'rib chiqing va raqamlarni qayd eting. Bir kunlik ishlatilgan elektr energiyasi, suv, gazning narxini aniqlang (2-sana);
 - d) ertasiga kun davomida gaz, elektr energiyasi va suvlarni tejang, ehtiyojdan ortiqchasini ishlatmang. Oldingi kun bilan farqni toping. 2-sanadagi raqamlarni 30 ga ko'paytiring. 3-sanadagi raqamlarni ham 30 ga ko'paytiring. Farqini aniqlang.

	1-sana	2-sana	3-sana	Bir oyda 2-sana x 30	Bir oyda 3-sana x 30
Sana					
Ichimlik suvi					
Gaz					
Elektr energiyasi					



19-MAVZU: FAZILATLAR – INSON KO‘RKI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. «Mas’uliyatli bo’lish» deganda nimani tushunasiz?
2. O’zingizning qiladigan ishingiz yoki xatti-harakatlaringizni qanday qilib amalga oshirishni rejalashtirasizmi?
3. «Odamning eng baxtli vaqti – boshqalarga yaxshilik qilgan onlaridir» degan hikmatni tushuntirib bering.
4. Yaxshi inson bo’lish uchun qanday fazilatlarga ega bo’lish kerak? Katakchalardagi so’zlardan yaxshi inson bo’lish uchun zarurlarini ajrating.



Sabr

Qanoat

Intilish

Mehnatsevarlik

Mehribonlik

Mas’uliyatlilik

Sadoqat

Xayrixohlik

Kun tartibiga
rioya qilish

Mardlik

Halollik

Odob





Fan va san'at rivojlangan Afinada donishmand Suqrotning hurmati yuqori bo'lgan. Odamlar boshiga tashvish tushsa, biror muammoni yechishga qiynalsa yoki kitoblardan savollariga javob topa olmasalar Suqrotga murojaat qilganlar.

Bir kuni faylasufning yo'lini g'iybatchi tanishi to'sibdi. U Suqrotning yaqin do'sti haqida tarqalgan yangilikni so'zlamochi bo'libdi.

– Birodar, bir daqiqa shoshma, – dedi Suqrot bosiqlik bilan. – Menga aytmoqchi bo'lgan xabaringni avval men yaqinda kashf qilgan «Uch g'alvir» imtihonidan o'tkazib ko'rsak, har ikkimiz uchun foydali bo'lar edi.

Donishmandning kashfiyotiga qiziqib qolgan suhbatdoshi bu shartga darrov ko'na qolibdi.

– Menga do'stim haqidagi xabarni aytishdan avval uni uch marotaba ong-u shuuringda g'alvirdan o'tkazib, obdan elab ko'ramiz. Birinchi g'alvir – haqiqat. Menga ayt-chi, do'stim bilan bog'liq voqeaga guvoh bo'ldingmi? Uning mutlaq haqiqat ekaniga aminmisan?





- Yo‘q. To‘g‘risi, buni o‘zim ham birovdan eshitdim.
- Tushunarli. Xabarning rost yoki yolg‘onligini o‘zing ham bilmaysan. Kel, endi ikkinchi g‘alvirni ko‘tarsak. Uning nomi – yaxshilik. Bu xabardan do‘stim biror yaxshilik topadimi?
- Yo‘q, bilmayman, – g‘o‘ldiradi yo‘lto‘sar.
- Xabarning na rostligini bilmasang, uning do‘stimga biror nafi tegmasa... Ha, mayli, uchinchi g‘alvirdan nima chiqar ekan, ko‘ramiz. Uni «xushxabar» deb nomladim. Menga aytmoqchi bo‘lgan gaping noxushmi?
- Ha, haligi do‘stingizning oilasi...
- Yaxshi, – Suqrot «xabarchi»ning so‘zini bo‘lib, unga tikildi. – Unda senga imtihon natijasini aytay: modomiki, aytar so‘zing rostligiga amin bo‘lmasang, uning birovga foydasi tegmay, zarari yetadigan bo‘lsa, o‘zingni ham, senga quloq tutgan ahmoqning ham vaqtini o‘g‘irlama.

Ijodiy faoliyat



1. Hikoyaga sarlavha qo‘ying.
2. Hikoya asosida quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Haqiqat	Yaxshilik	Xushxabar

3. Hikoyadan qanday xulosaga keldingiz?
4. Tushirib qoldirilgan so‘zlarni qo‘ying.
Menga ayt-chi, do‘stim bilan bog‘liq voqeaga _____ bo‘ldingmi, uning mutlaq _____ ekaniga aminmisan?
Bu xabardan do‘stim biror _____ topadimi?
Modomiki, aytar so‘zing _____ ga _____ bo‘lmasang, uning birovga _____ tegmay, _____ yetadigan bo‘lsa, o‘zingni ham, senga quloq tutgan ahmoqning ham _____ o‘g‘irlama.
5. Siz o‘zingizda qanday fazilatlarni shakllantirishni xohlaysiz?



Oila davrasida

1. Do'stingiz haqida biror noxush xabar eshitsangiz, nima uchun uning ahvolini so'rash kerak deb hisoblaysiz?
2. Biror inson haqida yomon gaplarni tarqatish nima deyiladi? Buning oqibati qanday bo'ladi?
3. O'zingizning fazilatlaringiz haqida o'ylab ko'ring. Yomon odatlaringiz ham bormi? Yomon odatlaringizdan voz kechishga harakat qilib ko'ring.
4. Ochiq chehra bilan «Assalomu alaykum» deyishga harakat qiling. Bir necha marta takrorlang. So'zlarni aniq va ravon ayting.
5. Quyida berilgan hikmatni oilangiz bilan o'qib, «qanoat», «tama qilish» degan so'zlarning mazmunini aniqlang.



Hikmat

Kimki qanoatni o'ziga kasb qilgan bo'lsa, qanoat uni boy qiladi. Oltin, kumush bilan zeb-u ziynatlarni boylik deb bilma, balki haqiqiy boylik qanoat oltinlaridir. Qanoat oltini hech qachon yo'qolmaydi. Ana shu oltinni qo'lga kiritib, shu orqali boyishga harakat qil... Tama qilish gadolarning ishidur. Bilki, tama qilgan kishi gadodir.

Alisher Navoiy



20-MAVZU: MUVAFFAQIYAT – BIR JAMOAGA AYLANISHDA

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. Jamoa nima? Jamoada ishlash sizga yoqadimi? Nima uchun?
2. «Birlashgan o'zar» degan ertakni o'qiganmisiz? Nima uchun ertak «Birlashgan o'zar» deb ataladi?
3. Siz qanday ishlarni jamoangiz bilan bajara olasiz?
4. «Birgalikda katta kuchmiz» deganda nimani tushunasiz?

Qo'shni viloyatga sel kelishi oqibatida ko'plab odamlar uysiz qoldi.

Bu xabarni eshitgan ota-onam odamlarga zarur bo'lgan nima bilan yordam bera olishimizni maslahat qildilar. «Jabr ko'rgan bolalarga kitoblarimizdan beramiz, ular ham o'qishsin», – dedilar onajonim bizga.

O'zlari ro'zg'or uchun zarur bo'lgan choynak, piyola, ko'rpa-to'shak, gilam, dasturxon, sochiq kabi narsalarni chiroyli qilib tugib qo'yidilar.

– Voy-bo', bularni birovlariga berib yuboramizmi? – deb so'radi ukam.

– Bolajonim, el boshiga ish tushganda er kishining kimligi bilinadi. Ularga yordam berishimiz kerak, – tushuntirdilar onajonim. Ukam ham qo'lidagi kitoblarni bog'lab mashinaga qarab yugurdi.

Mashinaning orqa o'rindig'i olib tashlanib, otajonim do'kondan bir





qop un, guruch, yog‘ va yana boshqa mahsulotlarni ortib kelgan ekanlar.

– Dadajon, bu narsalar odamlarning hammasiga yetmaydi-ku? – so‘radim xavotirlanib.

– To‘g‘ri aytasan, qizim! Lekin biz kabi odamlar juda ko‘p. Zarar ko‘rganlarni qo‘llab-quvvatlash uchun savob ilinjida yordamga shoshayotgan faqat biz emas.

Otamning qilgan ishlaridan qoniqish, shijoatlarini ko‘rib, zarar ko‘rgan odamlarga ko‘mak berish istagi menda yanada ortdi.

– Biz bir mamlakatda yashaymiz, birlashsak, har qanday muammoni hal qila olamiz, bolam. Birlashgan o‘zar, – dedilar xuddi bizday yordamga shoshilgan qo‘shni amaki.

Olti yoshli singlim o‘yinchoq idishlari va qo‘g‘irchoqlarini, men kitoblarimni, do‘stim Komiljon o‘zi yaxshi ko‘rgan futbol to‘pini mashinaga joyladik.

O‘sha kuni oila davrasida insonning boshiga yomon tashvish tushsa yaxshilarning ko‘magiga qanchalik muhtoj bo‘lishi, og‘ir kunda dalda bo‘lish, qo‘lidan kelgan yordamini ayamalik insoni-





yatning eng yaxshi xislatlaridan biri ekanligi haqida uzoq suhbatlashdik.

Ijodiy faoliyat



Jadvaldagi harflarni to'g'ri tartibda joylashtirish orqali so'zlarni hosil qiling.

Avval topshiriqni o'zingiz bajaring (1 daqiqa), so'ngra juft bo'lib (1 daqiqa), keyin guruhlariga birlashib jamoada sinfdoshlar bilan bajaring (1 daqiqa).

AKHLMKOIR
O'DKLIST
Z O'A O R OYARDM
U T Sh Sh N U I
M F V A U A F Q A T I Y

Qaysi holatda siz vazifani tezroq bajardingiz? Nima uchun? Fikringizni izohlab bering.

Oila davrasida



1. Yuqoridagi hikoyaga sarlavha qo'ying.
2. Xulosalaringiz bilan o'rtoqlashing.
3. 63–64-betlardagi rasmlarga diqqat bilan qarang va ularni «Birlashgan o'zar, birlashmagan to'zar» maqoli bilan bog'lab izohlang.
4. Mahallangizda qanday ishlar hamkorlikda bajariladi?





21-MAVZU: BARCHA INSONLAR QONUN OLDIDA TENGDIRLAR



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. «Tenglik» deganda nimani tushunasiz?
2. Oilada bobo-buvi, ota-ona, aka-singil, opa-ukalarga bir xil munosabatda bo'lamizmi? «Kattalarga hurmat, kichiklarga izzat», degan maqolni tushuntiring.
3. Birovning haqiga xiyonat qilish insonlarning teng huquqliligiga daxl qiladimi?
4. Siz mahallangizda do'stlaringiz bilan o'ynayapsiz. Do'stlaringizdan biri boshqasiga hurmatsizlik qilsa, qanday munosabat bildirasiz?
5. Inson huquqlari yozilgan kitobning nomini bilasizmi?
6. «Huquq, burch, mas'uliyat» deganda nimani tushunasiz?
7. Sizning qanday huquq, burch va mas'uliyatlaringiz bor? Jadvalni to'ldiring.

Mening huquqim	Mening burchim	Mening mas'uliyatim





1. Har bir rasimga nom qo'ying. Rasmlarda qanday qoidalar buzilgan? Bu qoidalarga siz qanday amal qilasiz?

2. Agar musiqa notalaridan birortasi qo'shiqning ohangi yoki so'zlarini buzib aytsa, bu qo'shiqning sifatiga ta'sir qiladimi?

3. Jamoaviy qoidalarga nima uchun rioya qilish kerak?

4. Tengdoshlaringiz bilan qanday o'yinlar o'ynaysiz? O'yin qoidalarini eslang.





5. Quyidagi qoidalarga mos rasmlarni topib qo'ying:

- a) har birimiz sog'lig'imizni saqlash huquqiga egamiz;
- b) har bir bola oilada yashash va tarbiyalanish, o'z ota-onasini bilish, ular bilan birga yashash va ularning g'amxo'rligidan foydalanish huquqiga ega;
- d) ijtimoiy himoyaga muhtoj bolalar jamiyat hayotida ishtirok etishda boshqa bolalar bilan teng huquqlidirlar;
- e) har bir bola o'zining yoshi, sog'lig'i hamda ehtiyojlariga mos keladigan dam olish va bo'sh vaqtga bo'lgan huquqqa ega;
- f) har bir bola bilim olish huquqiga ega;
- g) barcha bolalar sog'lig'iga xavf tug'diradigan yoki o'qishiga xalaqit beradigan ishlardan himoyalaniish huquqiga egadirlar.



Oila davrasida



1. «Mening huquqlarim» mavzusida rasmlar chizing.

Chizgan rasmlaringizda quyidagilarga e'tibor bering:

- shaxsiy mulk huquqi;
- bola fikr bildirish huquqiga ega;
- hech bir bola shaxsiy va oilaviy hayoti, daxlsizligi yoki o'z sha'ni va obro'siga qonunga xilof ravishda asossiz tajovuz qilinishi yoki boshqalarning uning hayotiga noqonuniy aralashish obyekti bo'lishi mumkin emas.

2. Siz ta'lim olish, sog'liqni saqlash, hordiq chiqarish, sport bilan shug'ullanish huquqingizdan qanday foydalanyapsiz?

3. Abulqosim Firdavsiyning hikmatli so'zlarida qanday ma'no yashiringan?

Hikmat



Yomonlikni aslo aylama odat,
Ozga qanoat qil, ochlikka toqat.

Abulqosim Firdavsiy

Bilasizmi?



1-iyun – Xalqaro bolalarni himoya qilish kuni.

20-noyabr – Xalqaro bolalar kuni.



22–23-MAVZULAR: XAVFLI VAZIYATLARDA NIMA QILISH KERAK?



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Shoshilinch tibbiy yordam to'g'risida nimalarni bilasiz?
2. Siz hech favqulodda vaziyatda kimgadir yordam berganmisiz?
3. Rasmda berilgan maxsus kiyimdagi yozuv kimlarga tegishli? Ular nima bilan shug'ullanishadi?
4. Quyidagi rasmlar asosida Favqulodda vaziyatlar vazirligi xodimlari nima ish qilishlarini tushuntiring.





Mustaqil faoliyat



1. Siz yong'in, zilzila, suv toshqini to'g'risidagi shoshilinch xabarni eshitdingiz. Bunday vaziyatda o'zingizni qanday tutishni bilasizmi?
2. Tibbiy yordamni talab qiladigan holatlar bo'lishi mumkin (kuyish, sinish, qon ketishi va boshqa jarohatlar). «Tez yordam» kelguncha shikastlangan odamga qanday yordam berish mumkinligini o'ylab ko'ring.
3. Quyidagi rasmlarda berilgan vaziyatlarga duch kelib qolsangiz, o'zingizni qanday tutasiz? Shifokorlar yetib kelgunicha shikastlangan odamga qanday yordam bera olasiz?





Yiqilib tushdingiz yoki qo'lingizni kuydirib oldingiz...



Oftob urganda

Oftob urganda birinchi yordam ko'rsatish:

- jabrlanuvchini soya joyga yoki salqin xonaga o'tkazish kerak;
- unga sovuq ichimlik bering;
- boshiga sovuq sochiq qo'ying.



Sel kelganda va suv toshqini sodir bo'lganda harakatlanish.



Yong'in sodir bo'lganda harakatlanish.




Bilasizmi?



Zaharlangan odamga birinchi yordam ko'rsatish:

- jabrlanuvchiga 3–4 stakan suv yoki qatiq ichiriladi;
- oshqozon – 2–3 marta yuviladi;
- faollashtirilgan ko'mir (tabletkada) beriladi;
- iliq choy ichiriladi;
- jabrlangan odamning ustini qalin, issiq qilib o'rab yotqiziladi.



Zilzila sodir bo'lganda harakatlanish.



Oila davrasida

1. Tana a'zolari kesilganda yoki shilinganda birinchi yordam qanday ko'rsatiladi?
2. Oyoq (qo'l) suyagi chiqqanda qanday yordam berish kerak?
3. Issiq kunda quyosh urishidan jabrlangan bolaga qanday yordam berish kerak?
4. O'yin paytida bola yiqilib, oyog'ini shikastladi. Unga qanday yordam berish kerak?
5. Kesilgan barmoqlarni, oyoqni qanday bog'lash kerak?



24-MAVZU: BAXT OILADAN BOSHLANADI

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. Nima uchun oila qo'rg'onga o'xshatiladi?
2. Oilangiz qo'rg'onini kim nimadan himoya qiladi?
3. Oila a'zolaringiz qanday tartib-qoidalarga rioya qiladilar?
4. Bu qoidalarni kim o'ylab topgan?
5. Oilada baxtli hayot kechirish uchun oila a'zolari bir-birlari bilan qanday munosabatda bo'lishlari kerak?

SINOVDAN O'TGAN BOLALAR

Mahmud bobo bu yil maktabga chiqqan nabirasi Jamoliddinni sinab ko'rmoqchi bo'ldi. Axir unga odob-axloqdan qancha saboq berdi. Kattasining-ku, ancha aqli kirib qoldi. Qani, kichkinasi qanchalar ziyrak ekan? Bobo asta divanga o'tdi. Sal yonboshlab, o'zini uyquga soldi.

– Bobo...

Kamoliddin eshikni ochgan joyida to'xtab qoldi. Ortidan Jamoliddin ichkariga mo'ralamoqchi bo'ldi.

– Jim! – dedi Kamoliddin barmog'ini labiga bosib. – Bobom uxlab qolibdilar.

Jamoliddin akasining oldidan sekin o'tdi-da, to'nni olib, bobosining ustiga yopdi. Asta yaqinlashib, yuzidan o'pib qo'ydi. Kamoliddin yaxshi yopilmagan to'nni ohista to'g'rilab qo'ydi. Bularni sezib yotgan Mahmud boboning yuragi jo'shib ketdi. Ko'ziga yosh keldi. Shartta «uyg'onib», farosatli va g'amxo'r nabiralarini bag'riga





bosib erkalashni istadi. Amallab o'zini qo'lga oldi. Ammo beixtiyor jilmayib qo'ydi.

– Bobom uyg'ondilar shekilli, – dedi oyoq uchida yurib, ortiga qaytayotgan Jamoliddin bobosiga qarab.

– Yo'q, bobom shirin tush ko'ryaptilar, – dedi Kamoliddin ukasining yengidan tortib, eshikni yoparkan.

– Balki, bizlarni ko'rayotgandirlar?

– Ha, bizlarni ko'ryaptilar!

Qalbi shirin hislarga va ishonchga to'lgan Mahmud bobo xotirjam uxlab qoldi.



1-ijodiy faoliyat

1. Rasm daftariga oila a'zolaringizning rasmini chizing.
2. Yana bir qog'ozga tasavvuringizdagi uyingizning rasmini chizing va unda kimlar bilan yashashingizni belgilab chiqing.
3. Chizgan rasmingizni izohlang.





Bilasizmi?



Oila – bu inson uchun eng qimmatli makon.
 Hurmat + tinchlik + kelishuv + g'amxo'rlilik + tushunish +
 + an'analarga sodiqlik = baxt.
 O'zbekistonda 2012-yil Oila yili deb nomlangan.
 15-may – Xalqaro oilalar kuni.

2-ijodiy faoliyat



1. Siz nima deb o'ylaysiz, ahil oila bo'lish uchun nima qilish kerak?
2. Ushbu so'zlardan ahil oila bo'lish haqida matn tuzib ko'ring: oila, mehr, hurmat, izzat, yaxshilik, sabr, adolat, tushunish, qadrlash, sadoqat, samimiylik, mehnatsevarlik, yordam. Yana qanday so'zlarni qo'shish mumkin?

Oila davrasida



1. Qanday holatda ota-onalar o'z farzandlari haqida: «Bu mening keksalikdagi himoyachim va tayanchim», deb aytishlari mumkin?
2. Oilangiz logotipini tuzing. Uni chizib, ma'nosini tushuntirib bering.
3. Daftarga ushbu jummalarni davom ettirib yozing:
 Otam va onam men uchun eng _____.
 Men o'zimning sirlarimni _____.
 Men bobomni (buvimni) yaxshi ko'rishimning sababi _____.
 Mening oilam _____.



25-MAVZU: OILAVIY KITOBXONLIK – MUVAFFAQIYAT POYDEVORI



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Siz o'qigan kitoblaringizning nomlarini eslab qolganmisiz? Bu kitoblarni o'qishni sizga kim tavsiya qilgan?
2. Kitoblardan olgan taassurotlaringizni kimlar bilan bo'lishasiz?
3. «Kitob eng yaxshi sovg'a» degan fikrga qo'shilasizmi?


Rivoyat qilishlaricha, qadim zamonda bir hukmdor vazirlariga topshiriq beribdi. «Menga shunday bir narsa olib kelingki, uning yordamida men kechagi kunni, bugunni va ertani ko'ra olay. U meni jamiki voqealardan xabardor qilsin».

Vazirlar o'ylab qolishibdi. Podshohga avval qilich, keyin non olib kelishibdi. Ammo shoh darg'azab bo'lib, ularni rad qilibdi.





«Uch kun muhlat beraman, agar jo'yali javob topa olmasangiz, barchangizni cho'l-u biyobonga surgun qilaman», – debdi podshoh. Saroy a'yonlari maslahat qilib tog'dagi donishmandning oldiga borishibdi. Keksa donishmand shohning huzuriga sandiq bilan kelibdi. Sandiqni ochgan vazirlar hayratga tushibdilar.



«Kitob!»

Donishmand shohga shunday debdi: «Dunyoda inson uchun eng aziz ikki ne'mat bor. Biri – non, ikkinchisi kitobdir! Non rizq-ro'z, tiriklik va dasturxon ko'rki sanalsa, kitob kecha nima bo'lgani, bugun nima bo'layotgani va ertaga nima bo'lishini hikoya qiladi. Poklik, imon butligi, ma'naviy yetuklik ham uning sharofatidandir. Buyuk allomalar «Kitob o'qimagan odam – nodon, kitob kirmagan uy – zimiston!» – deb bejiz aytishmagan.

Donishmandning javobidan dili yorishib ketgan podshoh unga ancha-muncha tilla hadya qilibdi. Otaxon bu tuhfa bozordan kitoblar xarid qilib, uni odamlarga tarqatibdi.

1-ijodiy faoliyat



Quyidagi jadvalda berilgan maqollarni mazmuniga qarab bir-biri bilan bog'lang.

1.	Kitoblar – eng	a)	hayot ma'nosini tushuntiradigan do'stlarim.
2.	Gapirishdan oldin o'yla. O'ylashdan oldin –	b)	kitob o'qish kerak.
3.	Kitobning bizga o'rgatadigan eng ulkan sabog'i –	d)	dono maslahatchilarim.
4.	Yashash uchun	e)	kitob o'qi.
5.	Kitoblar –	f)	to'g'riso'zlik.



Oila davrasida

1. Oilangizdagilardan sevimli kitoblari haqida so'rang.
2. O'qigan kitoblaringizni mazmuniga qarab ajrating.

Ertaklar	Hikoyalar	Ensiklopediyalar	Maqollar va hikmatlar

3. Kitoblarni qanday tanlash kerak?
4. Agar kitoblar eng qimmatli sovg'a bo'lsa, unda ularga qanday munosabatda bo'lish kerak?



2-ijodiy faoliyat

1. Barcha oila a'zolaringizning xohish-istaklarini o'rganib chiqib, hamma uchun qiziqarli bo'lgan kitobni tanlang.
2. Dam olish kuni uyingizning mehmonxona yoki kutubxonasida hamma yig'ilishi uchun bir vaqtni belgilang. Oila a'zolaringiz yig'ilgach, ulardan o'zlari uchun divan, kresloda qulay joylashib olishlarini taklif qiling. O'zingiz tanlagan kitobni ovoz chiqarib o'qishni boshlang.
3. Taassurotlaringizni baham ko'rish va qiziqarli asarni muhokama qilishni unutmang.



Hikmat

Kunlardan bir kuni Luqmoni hakimdan: «Shuncha ilmni qanday to'pladingiz?» – deb so'rashibdi. Shunda donishmand: «Kitob o'qiyotgan paytlarimda yondirgan chiroq moyini hisoblasangiz, uning qiymati yeb-ichgan narsalarimdan ko'proqdir», – deb javob bergan ekan.



26-MAVZU: ONA – ULUG‘ ZOT

Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar



1. Nima uchun onalarni «ulug‘ zot» deb aytishadi?
2. Siz onangizni yaxshi ko‘rishingizni qanday ifodalaysiz?

Bir kishi olis shahardagi onasiga gul yuborish uchun do‘konga bordi. Gul do‘koniga kiraverishda yig‘lamsirab o‘tirgan qizcha uning diqqatini tortdi. Qizchadan xafaligining sababini so‘radi.

– Onamga juda yoqqani uchun doim qizil atirgul olar edim. Bugun esa pulim yetmayapti, – qizcha yosh aylangan ko‘zlarini ishqalaganicha javob qaytardi.

– Kel, o‘sha gulni sotib olamiz, – dedi u jilmayib.

Ular do‘konga kirib qizaloqqa yoqqan atirgul das-tasini xarid qilishdi. Gulga buyurtma berib, tashqariga chiqishdi.

– Rahmat, siz juda ham yaxshi amaki ekansiz. Agar bo‘sh bo‘lsangiz, bu gullarni oyijonimga berib kelar edik. Ular yotgan kasalxona bu yerga juda yaqin, – dedi qizcha.

Yaxshi amaki qizaloqning so‘zlaridan ta’sirlanib ketdi va uning ortidan ergashdi. Ular qizchanning onasi yotgan xonaga kirib kelganlarida qizcha ancha vaqtdan beri ko‘rmagan onasini mahkam quchoqlab, beixtiyor yig‘lab yubordi.





Onasiga gul jo'natmoqchi bo'lgan amaki uchrashuv tasodif emasligini angladi. Darhol gul do'koniga qaytib, juda chiroyli guldasta sotib oldi. Tug'ilib o'sgan shahriga, yo'liga intizor onasining yoniga shoshdi. Onasi undan qimmatbaho sovg'alar emas, uning diydori, shirin so'zi, e'tiborini kutayotganligini tushundi.



Ijodiy faoliyat

1. Hikoya sizga qanday ta'sir qildi?
2. Hikoyani o'qib bo'lgach xayolingizga birinchi bo'lib qanday fikr keldi?
3. Siz onangizga uy ishlarida qarashasizmi?
4. Onangiz chaqirganlarida «Labbay, onajon», deb javob berasizmi?



Hikmat

Biz hamisha qarzдор bo'lgan eng ulug' zot onadir.



Bilasizmi?

Kunlar tez o'tib bormoqda. Biz ulg'aymoqdamiz. Atrofimizdagi yaqin insonlarimizni xursand qilishga intilamiz. Ko'proq vaqtni oila a'zolarimiz bilan birga o'tkazishga harakat qilamiz. Buning sababi hayotimizda oilaning o'rnini har narsadan muhim ekanligidir.



✽ Ona shunday insonki, u hammaning o'rnini bosadi, biroq uning o'rnini hech kim bosa olmaydi.

✽ Onalar dunyodagi eng mehnatkash insonlardir. Ona o'z farzandining bitta kulgisi uchun:

- maoshsiz;
- dam olish kunlarisiz;
- tushlik qilmasdan ishlashga

tayyor.

✽ Onaning mehr-muhabbati shinam hovli kabi. Hamisha issiq va quyoshli.

✽ Onalar doim yordamga keladi, hatto ular yonimizda bo'lmasalar ham.

✽ Ona qalbi hamisha kechirimli, mehrga to'la makondir!



Oila davrasida



1. «Onalar dunyodagi eng mehnatkash insonlardir. Ona o'z farzandining bitta kulgisi uchun maoshsiz, dam olish kunlarisiz va tushlik qilmasdan ishlashga tayyor» deganda nimani tushundingiz?
2. Nima uchun «Onalar doim yordamga keladi, hatto ular yonimizda bo'lmasalar ham» deb aytiladi?
3. Yuqorida onaga berilgan ta'riflarni «Onaning ko'ngli bolada, bolaning ko'ngli dalada» maqoli bilan bog'lab tushuntiring.



27-MAVZU: SOG'LIQ – KATTA BOYLIK



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. «Sog' tanda sog'lom aql» deganda nimani tushunasiz?
2. Nima deb o'ylaysiz, nima uchun maktabingizdagi shifokorlar har yili sizni ikki marotaba tibbiy ko'rikdan o'tkazishadi?
3. Sizning sog'-salomat bo'lishingizdan kim ko'proq manfaatdor?

Hamza va Ahmad – sinfdoshlar. Hamza sport bilan shug'ullanar, maktabda oyisi tayyorlab bergan mazali ovqatlar, vitaminlarga boy mevalarni iste'mol qilar ekan. Ahmad esa tartibsiz ovqatlanar, tushlikka xot-dog va gamburgerlar yer ekan. Ovqatdan keyin, albatta, gazlangan rangli ichimliklar ichar ekan.

Hamza Ahmadga uning iste'mol qilayotgan yeguliklari sog'liq uchun zararli ekanini aytibdi. Do'stiga birgalikda sport bilan shug'ullanishni taklif qilibdi. Lekin Ahmad uning gaplariga e'tibor qilmabdi.

Bir kuni Ahmad maktabdan qaytayotib, ko'chada savdo qilayotgan sotuvchidan turli shirinliklar sotib olibdi. Uyga

kirib, televizor qarshisida cho'zilib, bir necha daqiqalar ichida ularni paqqos tushiribdi. Ko'p o'tmasdan Ahmad qornida qattiq og'riq sezib, ko'ngli aynibdi. Shifoxonada unga ovqatdan zaharlanish tashxisi qo'yilibdi. Ahmad shifoxonada uzoq muddat





davolanibdi. To'g'ri ovqatlanish qoidalariga amal qilma-
ganligidan afsuslanibdi.

– Do'stim, sening so'zlaringga quloq tutmay xato qil-
gan ekanman. Ota-onam ham menga sog'liq – eng katta
boylik ekanligini ko'p aytishgan, – debdi u Hamzaga.

Shu kundan boshlab ular birgalashib sog'lom
turmush tarziga amal qila boshlabdilar.

Ijodiy faoliyat



1. Hikoyaga sarlavha qo'ying.
2. Sizning salomatligingizga foydasi bo'lgan mahsulotlarni
bilasizmi? Ularni daftaringizga yozing.

10 yosh		Juda past	Past	O'rta	Baland	Juda baland
O'g'il bola- lar	bo'yi, sm	126,3 dan kam	126,3–132,9	133,0–146,6	146,7–149,2	149,2 dan yuqori
	vazni, kg	23,9 dan kam	23,9–28,1	28,2–39,6	39,7–44,7	44,7 dan yuqori
Qiz- lar	bo'yi, sm	127,0 dan kam	127,0–134,2	134,3–146,6	146,7–151,0	151,0 dan yuqori
	vazni, kg	22,7	22,7–27,6	27,7–39,7	39,8–47,4	47,4 dan yuqori

Oila davrasida



1. Kun tartibingizni tuzib, yozib keling.
2. O'z vazningizni va bo'yingizni o'lchang. Agar bo'yingiz
130 santimetr bo'lsa, unda vazningiz qancha kilo-
gramm bo'lishi kerak? Yuqoridagi jadvalga qarang.



28-MAVZU: SOG'LOM HAYOT UCHUN ZARUR KUN TARTIBI



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. Siz qat'iy o'rnatilgan kun tartibiga amal qilasizmi?
2. Kun tartibi nima uchun kerak?
3. Vaqtingizni to'g'ri taqsimlash uchun kun tartibining o'rnini qanday?
4. Kun davomida nima ishlar bilan shug'ullanasiz?

Shuhrat kun davomida juda ko'p ish qilmoqchi bo'lar ekan-u, ammo hech qaysisiga ulgurmas ekan. Qaysarligi tufayli kattalarning gapiga quloq solmas, doim o'z bilganidan qolmas ekan.

Bir kuni opasi unga: «Ukajon, kun tartibiga rioya qilsang, bajarishing lozim bo'lgan ishlarni avvaldan rejalashtirsang, ishlaring unumli bo'ladi. Darslarga ham ulgurasan. Kel, men senga yordam beraman», – debdi.

Darslaridan baholari pasayib ketganligi sababli Shuhrat bu safar opasining gapiga rozi bo'libdi. Ular birgalikda kun tartibini ishlab chiqishibdi. Kun tartibini «Muvaffaqiyatli hayot sari» deb nomlashibdi.

Shuhratning «Muvaffaqiyatli hayot sari» nomli kun tartibi

Har kuni yaxshi ishlarga 10 daqiqa ajratsangiz, bir yil ichida siz kamida 60 soat vaqtingizni foydali o'tkazishga erishasiz.

Tongda ertaroq uyg'onishga harakat qiling. O'ringizni tartibga keltiring. Yuz-qo'lingiz va tishingizni yuvgach, badantarbiya uchun 15 daqiqa ajrating.



Tanangizdagi suvsizlikni bartaraf qilish uchun nonushtadan avval limon aralashtirilgan iliq suv ichish salomatlikka foydalidir. Tongda nonushtaga qadar yarim soat biror mashg'ulotga vaqt ajrating. Misol uchun, yangi til o'rganishga. Bunday mahalda miya ma'lumotga chanqoq bo'ladi, o'qiganlaringiz xotirangizga tez muhrlanadi. Nonushtada sut-qatiq mahsulotlari, sabzavot aralashtirilgan tuxum, meva, danak-yong'oq yesangiz, kun davomida darslarda faol bo'lasiz. Ko'p shakar iste'mol qilmang.

O'zingiz bilan ichish uchun idishda suv olib yuring. Tez-tez suv ichish diqqatni oshirib, kayfiyatni ko'taradi.





Tushlikdan keyin maktab hovlisida biroz o'ynang yoki 10 daqiqa sayr qiling. Maktabdan qaytgach, o'zingiz qiziqqan mashg'ulotlar uchun vaqt ajrating. Bu vaqtda jismoniy faol bo'lish, uy ishlariga yordam berish ayni muddao.

Kechki payt dars qilish hamda kitob o'qish uchun vaqt ajrating. Yaxshi kitoblarni o'qish dono insonlar bilan suhbat qurishga o'xshaydi.

Uyqudan avval tishlaringizni yuving, ertaga qilishingiz zarur bo'lgan ishlarni rejalashtiring. Har kuni 8 soat uxlashga harakat qiling. Uyqudan avval yaqinlaringizga xayrli tun tilab, ularni yaxshi ko'rishingizni ayting.

Dam olish kunlari qo'shimcha mashg'ulotlarga vaqt ajrating. Muzey va diqqatga sazovor joylarga oilaviy tashrif buyuring.

Darvoqe, kun davomida tez-tez qo'lingizni yuvib yurishga odatlaning.



1-ijodiy faoliyat

Bu yerda salomatlik to'g'risidagi maqollar berilgan. Juftini topib maqolni o'qing.

1.	Kasal bo'lish oson –	a)	sog'lom bo'lasan
2.	Tozalik –	b)	davolanish qiyin
3.	Tongni jismoniy mashq bilan qarshi ol,	d)	bejog'liq ish
4.	Sog'lig'ing –	e)	salomatlik garovi
5.	Rejali ish –	f)	boyliging



2-ijodiy faoliyat



1. Siz kun tartibiga yana nimalarni qo'shimcha qilgan bo'lardingiz?
2. Berilgan jadvalni to'ldiring.

Savollar	Ha	Yo'q
Jismoniy mashqlar energiya va sog'liq manbayi ekanligiga qo'shilasizmi?		
Saqich chaynash tishlarni baquvvat qilishi rostmi?		
Kaktuslar kompyuterdan chiqayotgan nurlanishni qaytaradimi?		
Shirinliklar kayfiyatni ko'tarishi rostmi?		
Sabzi ovqat hazm qilish xususiyatiga egami?		
Yozda yil davomida yetarli bo'ladigan miqdorda vitaminlarni iste'mol qilish mumkinmi?		
Sut yogurtdan foydaliroq ekanligi to'g'rimi?		
Kompyuter qarshisida o'tirish vaqti chegaralanmaganligi rostmi?		



Oila davrasida



1. O'z kun tartibingizni tuzishda vaqtni to'g'ri taqsimlang.
2. Oila a'zolaringiz bilan muvaffaqiyatga erishish uchun o'zingizga hayotiy shior tanlang. Masalan, «Har doim oldinga intil», «Bu, albatta, qo'limdan keladi».
3. «Mening maqsadlarim» nomli kelgusi ishlaringizning xaritasini chizing. Ishni nimadan boshlashingizni belgilang.
4. Har bir erishgan muvaffaqiyatingizni belgilab boring. Masalan, «Bugun ingliz tilidan 4 ta so'z yodladim» va hokazo.



29-MAVZU: INSONNI XOTIRLASH – MILLIY QADRIYAT



Aqlni charxlash uchun savol va topshiriqlar

1. «Insonni xotirlash» deganga nimani tushunasiz?
2. Xotira maydoniga borganingizda xayolingizdan nimalar o'tadi?
3. Oila davrasida kattalar dunyodan o'tganlarni eslaganlariga guvoh bo'lganmisiz? Ular nima deb duo qilishadi?

TEMIR GENERAL

Baland bo'yli, cho'zinchoq yuzlari janub quyoshida qoraygan general – Sobir Rahimovni jang maydonidagi jasorati, qat'iyati, dushmanga murosasizligi tufayli dushmanlari «temir general» deb atashgan.

Sobir Rahimov 22 yoshida harbiy maktabni bitirib, komandir darajasiga erishadi. 1941-yilda u 39 yoshda edi.

General Sobir Rahimov 25 mingtagacha askar xizmat qilayotgan katta harbiy qismni boshqargan. U faqat buyruq bermas, safdosh askarlarga o'rnak bo'lib, dushmanga qarshi, avvalo, o'zi tashlanar edi. U nihoyatda jasur bo'lgan. Sobir Rahimov dushmanga

sher kabi tezkor hujum qilar, aqlli rejalar tuzib, g'animlarni dog'da qoldirar edi.

1942-yilning 23-sentabrda Sobir Rahimov bo'linmasi uchun eng og'ir janglardan biri bo'lib o'tgan. Dushman unga qarshi





75 ta samolyot va katta zambaraklarni yuboradi. Lekin ular Sobir bobomizni magʻlub qila olishmaydi.

Shundan keyin tank va harbiy mashinalar yuboriladi. Sobir Rahimovning jangchilari barcha hujumlarni qaytarishadi va ortga chekinishmaydi. 1943-yil martda Rahimovga general-mayor unvoni beriladi.

Biroq urush qurbonsiz boʻlmaydi. 1945-yilning 26-martida, gʻalabaga bir yarim oy qolganida dushman kemasidan otilgan ogʻir zambarak oʻqi kuzatuv punktiga kelib tushdi. Sobir Rahimov boshidan ogʻir jarohat oldi va kasalxonada vafot etdi. Ammo bu insonning Vatan oldidagi xizmatlari, mard va jasurligi hanuz tillardan tillarga oʻtib kelmoqda.

1-ijodiy faoliyat



Berilgan matndan kelib chiqib general Sobir Rahimovdagi fazilatlarni yozing va ularga taʼrif bering.

Fazilatlar	Ularga taʼrif

Bilasizmi?



Oʻzbekiston Respublikasi Prezidenti farmoniga asosan, 2020-yilning 9-mayida Ikkinchi jahon urushida qozonilgan gʻalabaning 75 yilligi munosabati bilan Toshkent shahrida «Gʻalaba bogʻi» ochildi. Bogʻ markazida Sobir Rahimovning mahobatli haykali qad rostladi.



2-ijodiy faoliyat

Mahallangizdagi urush qatnashchilari, harbiylar, yoshi ulug' insonlar bilan urush va tinchlik mavzusida suhbatlashing. Suhbat asosida matn tuzing.



Oila davrasida

1. General Sobir Rahimov haqida o'qib, nimalarni his qildingiz?
2. General bobomizning qaysi odatlari sizda ham bo'lishini xohlar edingiz?
3. Biz kimga o'xshashni orzu qilishimiz kerak? O'zingiz havas qilgan qahramonlaringiz haqida so'zlab bering.
4. «Vatan uchun yashalgan umr – unutilmaydi, u – mangulikka barobar!» mavzusida bobo-buvingizdan intervyu oling.
5. Siz ham mard va jasur bo'lishingiz uchun nimalarga e'tibor berishingiz kerak?
6. Oila a'zolaringiz ko'magida buyuk ishlarni amalga oshirgan shaxslar to'g'risida ma'lumot to'plang.



YAKUNIY TAKRORLASH

MEN 11 YOSHDAMAN VA MEN KO'P NARSAGA ERISHDIM

Bolalar, mana, o'quv yili ham yakuniga yetib bormoqda. Sizlarning bir yil davomida o'rgangan bilimlaringizni umumlashtiradigan vaqt keldi. Sizlarni oldinda katta hayot kutmoqda. O'tgan bir yil davomida olgan bilimlaringiz hayot yo'lida o'zingizning munosib o'rningizni topishingizga ko'mak beradi.

Topshiriq:

1. Guruhlarga bo'lining va o'rganganlaringizni yodga olib, o'zingizga berilgan mavzuga oid surat chizing:

1-guruh: Vatan – bobolardan qolgan bebaho meros.

2-guruh: Kitob mening hayotimda.

3-guruh: Xavfli vaziyatlarda nima qilish kerak?

4-guruh: Oila – baxt qo'rg'oni.

5-guruh: Axloqli insonga xos bo'lgan fazilatlar.

6-guruh: Biz – bir jamoamiz.

2. Chizgan rasmlaringizni boshqa guruhlarning ishlari bilan uyg'unlashtiring.

3. Hosil bo'lgan yaxlit surat asosida quyidagi savollarga javob bering:

✓ Inson hayotida Vatanning o'rne qanday?

✓ Vatanni nega asrash, himoya qilish kerak?

✓ Hayot deb nomlangan safarda insonga muvaffaqiyat qozonishi uchun nimalar kerak bo'ladi?

✓ Nega jamoaga aylanish muvaffaqiyatga erishishga yordam beradi?

✓ Orzularingiz va ularga erishish uchun nimalar qilishingiz zarurligi haqida so'zlang.

«Go'zal va muvaffaqiyatli hayot orzularining ulkan va chiroyli ekaniga ishongan yoshlarga nasib qiladi», – degan ekan donishmandlardan biri. Ulkan orzular qiling va ularning ortidan qat'iyat bilan boring.



MUNDARIJA

3-sinfda o'rganganlarimizni takrorlaymiz	3
1-MAVZU: Vatan madhi	4
2-MAVZU: O'zbekiston – ko'p millatli davlat	8
3-MAVZU: Mard va jasur inson – Vatanning tayanchi	12
4-MAVZU: Bobolarimizning bebaho merosi.....	15
5-MAVZU: Maktab – eng ulug' dargoh	19
6–7-MAVZULAR: Kitob – buyuk donishmand.....	22
8-MAVZU: Bilim – tengsiz xazina	26
Takrorlash	30
9-MAVZU: Vatan bayrog'ini baland tutaylik	31
10-MAVZU: Yaxshilik qilish hikmati.....	35
11–12-MAVZULAR: Imkoniyat va matonat	39
13-MAVZU: Rostgo'ylik.....	44
14–15-MAVZULAR: Halollik – muvaffaqiyat kaliti	47
Takrorlash	51
16-MAVZU: Tilga hurmat – elga hurmat	52
17–18-MAVZULAR: Tejamkorlik	54
19-MAVZU: Fazilatlar – inson ko'rki	59
20-MAVZU: Muvaffaqiyat – bir jamoaga aylanishda.....	63
21-MAVZU: Barcha insonlar qonun oldida tengdirlar	66
22–23-MAVZULAR: Xavfli vaziyatlarda nima qilish kerak?	70
24-MAVZU: Baxt oiladan boshlanadi.....	75
25-MAVZU: Oilaviy kitobxonlik – muvaffaqiyat poydevori	78
26-MAVZU: Ona – ulug' zot.....	81
27-MAVZU: Sog'liq – katta boylik	84
28-MAVZU: Sog'lom hayot uchun zarur kun tartibi.....	86
29-MAVZU: Insonni xotirlash – milliy qadriyat	90
Yakuniy takrorlash	93

T 23 Tarbiya 4 [Matn]: darslik / S. Shermuxamedova [va boshq.]. – Toshkent:
«O'zbekiston» NMIU, 2020. – 96 b.

ISBN 978-9943-6481-6-6

UO'K 17(075.3)
KBK 87.7ya72

O'quv nashri

Shermuxamedova Saodat, Akkulova Saodat, Ismatova Nargiza,
Ro'ziyeva Dilnoz, Rahimjonov Durbek, Sattorov Shuhrat, Zamonov Zokir,
Islomov Zohidjon, Maxmudov Obiddin, Zokirova Sevara, Madaliyeva Sevara,
Mo'minova Laylo, Xolmuxamedova Nilufar

TARBIYA

Baxt va muvaffaqiyat sirlari

Umumiy o'rta ta'lim maktablarining
4-sinfi uchun darslik

Muharrir *T. Mirzayev*

Badiiy muharrir *D. Mulla-Axunov*

Rassomlar: *U. Sulaymonov, S. Farmonov*

Texnik muharrir *T. Xaritonova*

Musahhih *D. G'aybullayeva*

Kichik muharrir *M. Salimova*

Sahifalovchilar: *S. Aziztoyeva, A. Sulaymonov*

Nashriyot litsenziyasi AI №158, 14.08.2009.

Bosishga 2020-yil 12-avgustda ruxsat etildi. Bichimi 60×84¹/₈.
Ofset qog'oz. «Arial» garniturasida ofset bosma usulida bosildi.

Shartli bosma tabog'i 11,16. Nashr tabog'i 5,46.

Adadi 483456 nusxada. Buyurtma № 20-245.

«O'zbekiston» nashriyot-matbaa ijodiy uyi.

100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

Telefon: (371) 244-87-55, 244-87-20. Faks: (371) 244-37-81, 244-38-10.

e-mail: uzbekistan@iptd-uzbekistan.uz www.iptd-uzbekistan.uz



COLORPACK
опечатание и полиграфия

Dizayn konsepsiyasi va uslubi bosh pudratchi
Kolorpak MCHJ tomonidan ishlandi.

Darslik holatini ko'rsatuvchi jadval

	O'quvchining ismi, familiyasi	O'quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgan- dagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1.						
2.						
3.						
4.						
5.						
6.						

**Darslik ijaraga berilib, o'quv yili yakunida qaytarib olinganda
yuqoridagi jadval sinf rahbari tomonidan quyidagi baholash
mezonlariga asosan to'ldiriladi:**

Yangi	Darslikning birinchi marotaba foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari mavjud, yirtilmagan, ko'chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo'q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, foydalanuvchi tomonidan qoniqarli ta'mirlangan. Ko'chgan varaqlari qayta ta'mirlangan, ayrim betlarga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova chizilgan, yirtilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo'q, qoniqarsiz ta'mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo'yab tashlangan. Darslikni tiklab bo'lmaydi.